

Rustambek IMAMOV
Rahmatullo HAYDAROV

MAHALLIY HOKIMIYAT ORGANLARINING KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI

(Uslubiy-risola)

Ushbu uslubiy risola Z. M. Bobur nomidagi Andijon Davlat universiteti “Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi” kafedrasining 2017-yil _maydagi __sonli yig‘ilishi qaroriga asosan nashrga tavsiya etilgan.

Ma’sul muharrir: yu.f.n., dots. T.T.Madumarov

Taqrizchilar: yu.f.d., Y. Rahimov
t.f.n., dots. O‘. Q. Ubaydullayev

Mazkur uslubiy-risola O‘zbekistonda shakllanayotgan demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini asoslaridan bo‘lgan davlat organlarining ayrim vakolatlari fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga o‘tkazish orqali bu fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarni tashkil etilishi, takomillashuvi, huquqiy maqomi va vazifalarining konstitutsiyaviy huquqiy asoslariga bag‘ishlangan.

Shuningdek, davlat boshqaruvini takomillashtirish, amalga oshirilayotgan islohotlardan kutilgan maqsadlarga erishish davlat hokimiyati va boshqaruvi, xususan mahalliy davlat hokimiyati va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish tizimining mavqeyini bundan ham mustahkamlash, ularning tashkiliy-huquqiy faoliyatini muntazam takomillashtirib borish masalalari keng tadqiq qilingan.

Uslubiy-risola talabalar, ilmiy tadqiqotchilar, professor-o‘qituvchilar, kasb-hunar kollejlari va akademik litsey o‘quvchi-yoshlari hamda keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan.

KIRISH

Mutsaqillikning ilk kunlaridanoq O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov tashabbusi va bevosita rahnamoligida davlat va jamiyat qurilishining o'zimizga xos modelini vujudga keltirish, davlat boshqaruvining yangi, zamonaviy va samarali tizimini tashkil etish va rivojlantirishning tashkiliy-huquqiy sharoitlarini yaratish borasida tizimli, bosqichma-bosqich islohotlar srategiyasi belgilab olindi.

Davlat qurilishi va boshqaruvi sohasida amalga oshiriladigan islohotlardan ko'zlangan asosiy maqsad - hokimiyat barcha tarmoqlari, jumladan, ijro hokimiyati bo'lmish hukumat faoliyatining mas'uliyati va samarasini oshirish hisoblandi.

Avvalo, «O'zbekiston Respublikasi mahalliy hokimiyat idoralarini qayta tashkil etish to'g'risida»gi Qonunga muvofiq, 1992-yil yanvaridan boshlab viloyat, tuman va shaharlarda joylardagi vakillik hamda ijroiya-boshqaruv hokimiyatiga rahbarlik qiluvchi hokimlik intsituti joriy etildi.

Tarixan juda qisqa muddatda Asosiy qonunimiz - O'zbekiston Respublikasi Kongsitutsiyasi ishlab chiqildi va qabul qilindi. Bu qomusiy hujjatda mamlakatimizda mahalliy davlat hokimiyatini tashkil etishning kongsitutsiyaviy asoslari belgilab qo'yildi. Uning XXI bobi «Mahalliy davlat hokimiyati asoslari» deb nomlanib, unda viloyatlar, tumanlar va shaharlarda (tumanga bo'ysunadigan shaharlardan, shuningdek, shahar tarkibiga kiruvchi tumanlardan tashqari) hokimlar boshchilik qiladigan xalq deputatlari kengashlari hokimiyatning vakillik organlari bo'lib, ular davlat va fuqarolarning manfaatlarini ko'zlab, o'z vakolatlariga taalluqli masalalarni hal etishlari belgilab qo'yildi.

Kongsitutsiyaning 100-moddasiga asosan, mahalliy hokimiyat organlari ixtiyoriga:

- qonuniylikni, huquqiy-tartibotni va fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash;
- hududlarni iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlangarish;
- mahalliy byudjetni shakllantirish va uni ijro etish, mahalliy soliqlar, yig'implarni belgilash, byudjetdan tashqari jamg'armalarni hosil qilish;
- mahalliy kommunal xo'jalikka rahbarlik qilish;
- atrof-muhitni muhofaza qilish;
- fuqarolik holati aktlarini qayd etishni ta'minlash;
- normativ hujjatlarni qabul qilish hamda O'zbekiston Respublikasi Kongsitutsiyasiga va O'zbekiston Respublikasi qonunlariga zid kelmaydigan boshqa vakolatlarni amalga oshirish kirishi mutsahkamlab qo'yildi.

Kongsitutsiyada belgilangan qoidalar keyinchalik «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida rivojlantirilib, unda mahalliy davlat hokimiyati faoliyatining iqtisodiy, moliyaviy asoslari, mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarining srukturasi va ular faoliyatining tashkiliy asoslari, mahalliy ijroiya hokimiyati organlari, xalq deputatlari kengashlari va hokimlarning vakolatlari, xalq deputatlari kengashi va hokimning faoliyatida qonuniylikning kafolatlariga oid normalar o'z aksini topdi.

Bu borada amalga oshirilgan islohotlarning ma'no-mohiyati va ahamiyati haqida so'z yuritganda, bu jarayonlarni alohida ikki davrga ajratish to'g'ri bo'ladi. O'tish davri va milliy davlatchilik asoslarini shakllantirish bilan bog'liq birinchi galdagi islohotlarni o'z ichiga olgan datslabki bosqich – 1991-2000-yillar mamlakatimiz va xalqimiz hayotida ulkan iz qoldirgan, tom ma'nodagi tarixiy ahamiyatga ega davr bo'ldi.

Bu tizim hokimiyatning hamma tarmoqlarini: prezidentlik boshqaruvi shaklini, qonun chiqaruvchi, ijroiya va sud hokimiyatlarini

o'zida uzviy qovushtirdi. Bundan tashqari, ushbu tizim oshkoralik, qabul qilinayotgan qarorlarni ochiq va keng ko'lamda muhokama qilish qoidalariga asoslandi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek, yangi o'zbek davlatchiligining qaror topish jarayoni ham tashqi, ham ichki murakkab sharoitlarda ro'y berdi.

Ichki siyosatimizda biz bir-biriga bog'liq ikki vazifani hal qilishimiz lozim edi. Bu - yangi davlatchilikni barpo etish hamda keng ko'lamli siyosiy va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish vazifasi edi.

Mazkur davrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Qoraqalpog'itson Respublikasi Vazirlar Kengashi, respublika viloyatlari, shaharlari va tumanlari hokimliklari apparatidagi xotin-qizlar ishlari ishchi organlari tuzilmasi to'g'risida»gi (1995), «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi (1995), «Viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari apparati tuzilmasini takomillashtirish to'g'risida»gi (1997), «Shaharlar va tumanlar hokimliklari apparati tuzilmasini takomillashtirish to'g'risida»gi (1997), «Qoraqalpog'itson Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi va viloyat hokimlarining qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari lavozimini joriy etish to'g'risida»gi (1997), «Andijon, Namangan va Farg'ona viloyati hokimliklari tizimiga qo'shimcha ravishda viloyat hokimining jamoat va diniy tashkilotlar bilan aloqalar bo'yicha o'rinbosari lavozimlarini kiritish to'g'risida»gi (1998), O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati va boshqaruv organlarida ish yuritish va ijro nazoratini tashkil etish bo'yicha normativ hujjatlarni tasdiqlash haqida»gi (1999), «Qoraqalpog'itson Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari huzuridagi maxsus komissiyalar to'g'risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida»gi (1999), «Viloyatlar, shaharlar va tumanlar hokimliklari tashkiliy-kadrlar xizmati maqomini o'zgartirish to'g'risida»gi (2000),

«Viloyatlar, shaharlar va tumanlar hokimliklari huzuridagi nazorat inspeksiyalari tuzilmasini tartibga solish to'g'risida»gi (2000) qarorlari qabul qilindi.

Ushbu risoladan oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida o'quvchilari va o'qituvchilar tomonidan huquq fanlari tizimida, ma'ruza va amaliy mashqulotlar o'tkazishda, darsliklar, o'quv qo'llanmalari tayyorlashda, oliy o'quv yurtlarining «Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi» yo'nalishi talabalari uchun fan sifatida kiritilgan "Davlat hokimiyati vakillik organlari" fanlarida foydalanishi mumkin.

I BOB. MAHALLIY HOKIMIYAT ORGANLARINING JAMIYATDA TUTGAN O`RNI

Mahalliy hokimiyat organlarining tashkil etilishi va ularning jamiyatdagi o`rni va ahamiyati

O'zbekiston Respublikasi o'z taraqqiyot yo'lini o'zi belgilab olar ekan, mahalliy davlat hokimiyati tizimi masalalari huquqiy tomondan mustahkamlandi. 1991-yil 31-avgustda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida»gi qonunning 5-moddasida ushbu masalaga aniqlik kiritilib, unga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi davlat idoralarining tizimi hokimiyatni qonun chiqaruvchi, ijroiya va sud hokimiyatiga ajratish tartibi asosida qurilishi belgilab berildi.

Mustaqillikning ilk davridayoq, O'zbekiston Respublikasining Oliy Kengashi 1992-yil 4-yanvarda «O'zbekiston Respublikasining mahalliy hokimiyat idoralarini qayta tashkil etish to'g'risida»gi qonunni qabul qildi. Birinchi marta mahalliy davlat va ijroiya hokimiyati organi boshlig'i sifatida hokim lavozimi mamlakat miqyosida joriy etildi. Mahalliy davlat hokimiyati tizimidagi ijro organi faoliyatida yakkaboshchilik asosidagi rahbarlikning tuzilishiga asosiy sabab shunda ediki, yangi davrdagi chuqur islohotlarni mas'uliyatli ijro hokimiyatisiz amalga oshirib bo'lmas edi. Davlatning bosh islohotchilik roli tabiiy zarurat bo'lib, eski totalitar tuzumdan yangi jamiyatga o'tish uchun faqat kuchli ijro hokimiyati kerak edi.

1992-yil 8-dekabrda O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining qabul qilinishi mahalliy davlat hokimiyati organlarining rivojlanishdagi muhim davrni boshlab berdi.

Konstitutsiyamizning XXI bobi (99-105-moddalar) «Mahalliy davlat hokimiyati asoslari» deb nomlandi va shu bilan mahalliy davlat hokimiyati organlarining Konstitutsiyaviy maqomi belgilandi. Xuddi

mana shu Konstitutsiyaviy normalar orqali ilk bor mahalliy vakillik organlari va o'zini-o'zi boshqarish organlari tizimi alohida qilib ajratildi.

Ilk bor Konstitutsiyada mahalliy hokimiyat organlarining bo'linish prinsipi amalga oshirildi, ya'ni xalq deputatlari Kengashlari vakillik organi sifatida, hokimlar ijro etuvchi hokimiyat organlari sifatida faoliyat yuritadigan bo'ldi. Viloyatlar, tumanlar va shaharlarda, shuningdek, shahar tarkibiga kiruvchi tumanlar, tumanga bo'ysunuvchi shaharlarda ham ijro hokimiyati rahbari sifatida hokimlar faoliyat yuritishi belgilandi.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, «Konstitutsiyaga muvofiq, davlat hokimiyati organlarining avvalgi totalitar tuzumdan mutlaqo farq qiladigan, hokimiyatlarning, ya'ni qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlarining bo'linishi prinsipiga asoslangan tizimi yaratildi. Ularning har biri faoliyatida avtoritarizm va totalitarizmning xurujlarini istisno etadigan chinakam demokratik me'yorlar va yo'l-yo'riqlar qaror toptirildi. Tashkil etilgan ijro etuvchi hokimiyat organlari tubdan farq qiladi. Ular rejalash-taqsimlash vazifalaridan holi bo'lib, iqtisodiy siyosatni muvofiqlashtirish va tartibga solish rolini bajarmoqda. Ko'plab vazirliklar o'rniga bozor sharoitlariga mos bo'lgan xo'jalik birlashmalari, uyushmalari, konsernlar, korporatsiyalar, xolding kompaniyalari tashkil etildi. Davlat hokimiyati organlarining yangi tizimi vujudga keltirildi. Ularning ijro etuvchi hokimiyat bilan vakillik hokimiyati rahbarining vazifalari birlashtirilgan¹.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mahalliy hokimiyat organlarining huquqiy asoslari rivojlangan demokratik davlatlar tajribasini chuqur o'rganish, milliy meros va an'analarni e'tiborga olgan holda, o'z mentalitetimizdan kelib chiqib yaratildi. Umuman, dunyodagi

¹ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -T.: «O'zbekiston», 1997, 155-156-b.

demokratik rivojlangan davlatlarning uzoq tarixiy tajribasi va Konstitutsiyaviy an'analari Respublikamiz Konstitutsiyasi va mahalliy hokimiyatga doir qonunlarida o'z aksini topib, mahalliy ijroiya hokimiyat organlarining, fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini himoya qilish, mahalliy boshqaruv va boshqa barcha masalalarni aholining manfaatlarini e'tiborga olgan holda qonunlar, shuningdek, tegishli moddiy va moliyaviy resurslar asosida bevosita yoki bilvosita hal qilish maqsadlaridan kelib chiqib tashkil etilishi belgilandi.

1993-yil 2-sentabrga kelib esa Konstitutsiyada belgilangan normalardan kelib chiqqan holda mahalliy davlat hokimiyati organlari huquqiy maqomini yanada aniqlashtirish va ular faoliyatining mexanizmini shakllantirish maqsadida «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida» qonun qabul qilindi. Ushbu qonunda mahalliy davlat hokimiyatining vakillik va ijroiya organlarining huquq va vazifalari va ular munosabatlarining huquqiy asoslari aniq mustahkamlandi.

Xuddi shu kuni o'zini-o'zi boshqarish organlari huquqiy maqomini belgilab beruvchi «Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida» qonun qabul qilindi. Ushbu qonunda ilk bor o'zini-o'zi boshqarish organlarining maqomi belgilab berildi.

Hokim - mahalliy ijroiya va vakillik hokimiyatining rahbari sifatida

Hokim institutining joriy etilishi o'zbek milliy davlatchiligi an'analari va tarixiy tajribalarning qaytadan tiklanishining tarixiy tajriba va an'analarga asoslanadi. Iskandar davrida mahalliy aholi vakillaridan Artaboz - Baqtriyada, Oksiart va Xoriyon - So'g'diyona viloyatlarida hokimlik qilganlar. Xususan, Amir Temur va temuriylar davlatchiligida davlat boshqaruvi oliy darajadagi amaldorlardan tashkil topgan markaziy boshqaruv va viloyat hokimlari qo'lida mahalliy boshqaruv asosiy o'rin tutib, ular mamlakatning amaldagi haqiqiy egalari edilar.

Mustaqillikning ilk kunlaridanoq, mahalliy hokimiyat organlari faoliyatida yakkaboshchilikni kuchaytirish maqsadida hokim lavozimi ta'sis etildi va 1991-yil dekabr oyida Toshkent shahri aholisi tomonidan ilk bor shahar hokimi saylandi. Oliy Kengash tomonidan 1992-yil 4-yanvarda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi mahalliy hokimiyat idoralarini qayta tashkil etish to'g'risida»gi qonun hokim institutining asosiy vazifalarini belgirlab bergan bo'lsa, «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi 1993-yil 2-sentabr qonuni hokim instituti faoliyatining tashkil etilishini qonuniylashtirdi.

Viloyat, tuman, shahar hokimi viloyat, tuman va shaharning oliy mansabdor shaxsi bo'lib, ayni bir vaqtda tegishli hududdagi vakillik va ijroiya hokimiyatini boshqaradi. «Kuchli ijroiya hokimiyati bo'lmasa, hatto eng demokratik yo'l bilan qabul qilingan qarorlar ham bajarilmasligi mumkin»⁴, - degan edi Islom Karimov.

Hokimlik lavozimi ijro hokimiyatini kuchaytirish maqsadida vujudga keltirilgan. Hokim nafaqat joylarda ijro hokimiyatini boshqaradi, balki vakillik organlarini ham boshqaradi.

Hokimlar vakillik organlaridan farq qilib, tayinlash yo'li bilan ta'sis etiladi. Viloyat hokimlari va Toshkent shahar hokimi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanib, lavozimidan ozod qilinadi, tayinlash va ozod qilish viloyat va Toshkent shahar Kengashlari sessiyasida tasdiqlanadi. Bu viloyat va Toshkent shahar hokimlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining shu joylardagi vakili ekanligini ko'rsatadi. Natijada markaziy va mahalliy ijro organi o'rtasida mustahkam aloqa vujudga keladi. Viloyat Toshkent shahar hokimlari hokimlik tizmining yuqori bo'g'inini tashkil etadi.

Hokimlik tizimining keyingi bo'g'ini tuman va shahar hokimlaridir. Ular ham ikki guruhga bo'linadi. Birinchisi, viloyat tarkibidagi tumanlar

⁴ Karimov LA. O'zbekistonning o'z istiqloli va taraqqiyot yo'li. —T 1992,16-bet.

va viloyatga bo'ysunuvchi shaharlarning hokimlari. Bu hokimlar viloyat hokimi tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi hamda tegishli hudud xalq deputatlari Kengashida tasdiqlanadi.

Shahardagi tumanlarning hokimlari, shahar hokimi tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi. Shahar tarkibidagi tumanlarda vakillik hokimiyati organlari bo'lmaganligi uchun, hokimlarni lavozimga tayinlash yoki lavozimidan ozod qilish shahar Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

Tumanga bo'ysunuvchi shaharlarning hokimlari, tuman hokimi tomonidan lavozimga tayinlanadi yoki lavozimidan ozod qilinadi. Tumanga bo'ysunuvchi shaharlarda ham vakillik organi bo'lmaganligi uchun hokimni lavozimga tayinlash va lavozimidan ozod qilish masalasi tuman xalq deputatlari Kengashlarida tasdiqlanadi.

Hokimlarni lavozimga tayinlashda bir tomondan Prezident va yuqori hokimlar, ikkinchi tomondan tegishli vakillik organlarining ishtirok etishi, hokimlarning yuqori va mahalliy vakillik organlari oldida, xalq vakillari oldida mas'uliyatni kuchaytiradi.

«Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi qonunning 21-moddasiga ko'ra, viloyat, tuman, shahar ijroiya hokimiyatiga hokim boshchilik qiladi. Hokim O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilaydigan miqdorda birinchi o'rinbosar va o'rinbosarlarga ega bo'ladi. Viloyat va Toshkent shahar hokimining birinchi o'rinbosari hamda o'rinbosarlari hokim tomonidan O'zbekiston Respublikasining Prezidenti bilan kelishilgan holda lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi, bu xususda qabul qilingan qaror tegishli xalq deputatlari Kengashining tasdig'iga kiritiladi. Tuman, shahar hokimining o'rinbosarlari tegishli hokim tomonidan yuqori turuvchi hokim bilan kelishilgan holda lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi, bu xususda qabul qilingan qaror tuman, shahar xalq deputatlari Kengashining tasdig'iga kiritiladi.

Shahardagi tuman, tumanga bo'ysunuvchi shahar hokimining o'rinbosarlari tegishli hokim tomonidan yuqori turuvchi hokim bilan kelishilgan holda lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi.

Hokimning o'rinbosarlari hokim tomonidan belgilangan vazifalar taqsimotiga muvofiq ish bajaradilar. Hokim yo'qligida yoki u zimmasidagi vazifalarni bajarish imkoniyatiga ega bo'lmagan taqdirda uning vakolatlarini birinchi o'rinbosar yoki hokimning topshirig'iga binoan uning o'rinbosarlaridan biri bajaradi.

Viloyat, tuman va shahar hokimliklari faoliyatida hokim ijroiya mahkamasining ishini tashkil etish katta ahamiyatga ega. Chunki, hokim o'z vakolatlarini ijro mahkamasi orqali amalga oshiradi.

«Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi qonunning 22-moddasiga ko'ra, mahalliy ijroiya hokimiyati organlari (hokimliklar) boshqarmalar, bo'limlar va boshqa bo'linmalardan iborat bo'lib, ularning strukturasi, ularni tashkil etish tartibi va faoliyati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlaydigan tegishli nizomlar bilan belgilanadi.

Viloyatlar va Toshkent shahar ijroiya hokimiyati organlari-ning strukturasi va shtatlari hokim tomonidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bilan kelishilgan holda tegishli xalq deputatlari Kengashi tasdiqlagan budjet doirasida belgilanadi va o'zgartiriladi.

Tuman, shahar ijroiya hokimiyati organlarining strukturasi va shtatlari hokim tomonidan yuqori turuvchi hokim bilan kelishilgan holda tegishli xalq deputatlari Kengashi tasdiqlagan budjet doirasida belgilanadi va o'zgartiriladi. Viloyat, tuman, shahar hokimliklari apparatining stukturasi va shtatlari viloyat, tuman, shahar xalq deputatlari Kengashi tasdiqlagan budjet doirasida belgilanadi va o'zgartiriladi.

Viloyat va Toshkent shahar hokimligi apparatining namunaviy strukturasi va shtatlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

tomonidan, tuman va shahar hokimligi apparatining namunaviy strukturasini va shtatlari esa yuqori turuvchi hokim tomonidan belgilab qo'yiladi. Qoraqalpog'iston Respublikasida tuman va shahar hokimligi apparatining namunaviy strukturasini va shtatlari Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi tomonidan belgilab qo'yiladi.

Mazkur qoidaga asosan, Vazirlar Mahkamasi hokimliklar ijroiya mahkamasining tashkil etish va faoliyat yuritish nizomlarini tasdiqlab, bu apparatlar ishini yanada takomillashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi 1997-yil 17-iyundagi «Viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari apparati tuzilmasini takomillashtirish to'g'risida»gi 301-sonli Qarorini qabul qildi. Shuningdek, bu boradagi faoliyatni yanada takomillashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi 2004-yil 5-yanvarda «Davlat boshqaruvi hududiy organlari tuzilmasini takomillashtirish to'g'risida» qaror qabul qildi.

Xalq deputatlari Kengashlari - joylardagi vakillik organi sifatida

Konstitutsiya mahalliy vakillik organlarini ikki bo'g'inli tizimini mustahkamladi va ushbu holat «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi qonunda ifodasini topdi.

Konstitutsiyaning 99-moddasiga ko'ra, viloyatlar, tumanlar va shaharlar (tumanga bo'ysunadigan shaharlardan, shuningdek, shahar tarkibiga kiruvchi tumanlardan tashqari)da hokimlar boshchilik qiladigan xalq deputatlari Kengashlari hokimiyatning vakillik organlari bo'lib, ular davlat va fuqarolarning manfaatlarini ko'zlab o'z vakolatlariga taalluqli masalalarni hal etadilar.

Mazkur moddada mustaqil O'zbekiston Respublikasining mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarining tizimi belgilangan. Bu avvallari davlat hokimiyatining vakillik organlari, Respublikaning

ma'muriy-hududiy bo'linishining hamma bo'g'inida tuziladi, degan qoidaga barham berdi. Bu normaga binoan mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari viloyatlarda, tumanlarda va shaharlarda tashkil qilinadi. Tumanlarga bo'ysunadigan va shahar tarkibiga kiruvchi tumanlarda davlat hokimiyati vakillik organlari tashkil qilinmaydi. Jumladan, Toshkent shahri tarkibidagi tumanlarda ham vakillik organlari tuzilmaydi. Shuningdek, shaharcha, qishloq va ovullarda ham davlat hokimiyati vakillik organlari tuzilmaydi.

Mahalliy vakillik organlariga ham ijroiya hokimiyat boshlig'i rahbarlik qiladi, ularning rahbarligi, asosan, vakillik organlarining ishini tashkil qilish, yo'naltirishdan iboratdir. Hokimlarning joylarda vakillik va ijro hokimiyatiga rahbarlik qiladi, deb belgilanishi, mahalliy miqyosda hokimiyatning bo'linish prinsipiga amal qilinmagandek tuyuladi. Aslida hokimlar vakillik organlaridan ustun turmaydi, ularning vakillik organlarini hokimlarga bo'ysunishi ma'nosida emas, vakillik organlari ishini tashkil qilish doirasida bo'ladi².

Mahalliy davlat hokimiyati organlari hisoblanuvchi xalq deputatlari Kengashlari vakillik xarakteriga ega, ya'ni xalq tomonidan umumiy, teng, to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan saylanadi. «Xalq ham bevosita, ham o'z vakillari orqali davlat hokimiyatini amalga oshirishda to'liq imkoniyatga ega bo'lishi lozim»³.

Xalq deputatlari Kengashlarining saylov orqali tashkil etilishi, ularning vakillik xarakterini yaqqol ko'rsatadi. Ya'ni saylov natijasida fuqarolar bu organlarga o'zlarining vakillarini saylaydi. Kengashlarga saylangan deputatlar saylovchilardan vakolat olib, ularning nomidan o'z faoliyatini yuritadi. Ular, boshqacha qilib aytganda, davlat hokimiyati organlaridagi xalqning muxtor vakilidir.

² Husanov O. Mustaqillik va mahalliy hokitniyat. —T.: «Sharq», 1996,32-b.

³ Karimov LA. O'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li. — T.: «O'zbekiston», 1992, 16-bet.

Xalq deputatlarining saylovi 1994-yil 5-mayda qabul qilingan «Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risida»gi Qonun bilan tartibga solinadi. Unga ko'ra, Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashlanga saylov hududiy bir mandaatli saylov okruglari bo'yicha ko'ppartiyalilik asosida besh yil muddatga o'tkaziladi.

Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari deputatlari umumiy, teng va to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan saylanadilar.

Deputatlar saylovini o'tkazish uchun:

- Xalq deputatlari viloyat va Toshkent shahar Kengashlariga deputatlar saylashda oltmishtadan ko'p bo'lmagan;
- Xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlariga deputatlar saylashda o'ttiztadan ko'p bo'lmagan hududiy saylov okrugi tuziladi. Har bir saylov okrugidan tegishli xalq deputatlari Kengashiga bitta deputat saylanadi.
- Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov o'tkazuvchi saylov okruglari soni aholining, saylovchilarning soni, hudud va boshqa mahalliy sharoitlarni inobatga olgan holda ushbu Qonunda belgilangan normalar doirasida tegishli xalq deputatlari Kengashi tomonidan belgilanadi.

Saylov okruglari tegishli viloyat, tuman, shahar saylov komissiyalari tomonidan, qoida tariqasida, saylovchilar soni teng holda tuziladi. Saylov okruglarining chegaralari viloyatlar, tumanlar va shaharlarning ma'muriy-hududiy tuzilishini inobatga olgan holda belgilanadi.

Qonunning 9-moddasiga binoan saylovni tashkil etish va o'tkazish uchun:

Xalq deputatlari viloyat Kengashiga saylov o'tkazuvchi viloyat saylov komissiyasi;

- Xalq deputatlari tuman Kengashiga saylov o'tkazuvchi tuman saylov komissiyasi;
- Xalq deputatlari shahar Kengashiga saylov o'tkazuvchi shahar saylov komissiyasi;
- Okrug saylov komissiyalari;
- Uchastka saylov komissiyalari tuziladi.

Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashlariga saylov yuzasidan saylov kompaniyasi boshlanganligi deputatlarning vakolat muddati tugashidan kamida uch oy oldin O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi tomonidan ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi. Qonunning 20-moddasiga ko'ra, Xalq deputatlari viloyat Kengashlari deputatligiga nomzodlar ko'rsatish huquqiga siyosiy partiyalar, bevosita fuqarolar egadirlar.

Xalq deputatlari tuman, shahar Kengashlari deputatligiga nomzodlar ko'rsatish huquqiga siyosiy partiyalar, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari, shuningdek, bevosita fuqarolar egadirlar.

23-moddaga binoan:

- Sodir etilgan jinoyati uchun sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan shaxslar;
- Saylov kuniga qadar so'nggi besh yil mobaynida O'zbekiston Respublikasi hududida muqim yashamagan shaxslar;
- O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining harbiy xizmatchilari, Milliy xavfsizlik xizmatining, Ichki ishlar vazirligining, boshqa harbiylashtirilgan bo'linmalarning xodimlari;
- Diniy tashkilotlar va birlashmalarning professional xizmatchilari deputatlikka nomzod etib ro'yxatga olinmaydilar.

Saylovoldi tashviqot deputatlikka nomzodlar tegishli viloyat, tuman, shahar saylov komissiyasi tomonidan ro'yxatga olingan kundan boshlanadi. Saylovchilarning ro'yxatlarini tuzish, fuqarolarni ro'yxat bilan tanishtirish, ovoz berishni tashkil etish va saylov

natijalarini aniqlash tegishli saylov komissiyalari tomonidan amalga oshiriladi.

Xalq deputatlari Kengashlariga saylanadigan deputatlarning tarkibini kuzatsak, ular orasida aholining hamma qatlamlariga tegishli kishilar borligini ko'ramiz, deputatlar orasida turli kasb, millat, yosh, partiya, turli jins vakillarining mavjudligi, bu organning haqiqatan vakillik organi ekanligidan dalolat beradi. «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi qonunning 1-moddasiga ko'ra, xalq deputatlari Kengashi va hokim viloyat, tuman va shahar uchun umumiy bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish vazifalari amalga oshirilishini, joylarda qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining boshqa qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasi qabul qilgan hujjatlar, yuqori turuvchi xalq deputatlari Kengashlari va hokimlar qarorlarining ijrosini, O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari bilan fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari o'rtasidagi aloqalarni, aholini viloyat, tuman va shaharni boshqarishga jalb etishni ta'minlaydi.

Mahalliy hokimiyat organlari o'zlarining butun faoliyatini davlat hamda fuqarolarning manfaatini ko'zlab olib boradilar, natijada davlat manfaati bilan fuqarolarning manfaati o'rtasida mushtaraklik vujudga keladi. O'zbekiston Respublikasida davlat faoliyatining muhim prinsiplaridan biri qonuniylikdir. Bu prinsip mahalliy vakillik faoliyatiga ham taalluqlidir, shuning uchun ularni o'z vakolatlariga taalluqli masalalarni hal qilishini Konstitutsiyada belgilanishi tabiiydir.

Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi qarorlarini qabul qiladi va basharti ana shu hujjatlarda o'zga tartib belgilanmagan boisa, imzolangan vaqtdan boshlab kuchga kiradi.

Xalq deputatlari Kengashi o'z vakolatlari doirasida qabul qilgan hujjatlar viloyat, tuman, shahar hududida joylashgan barcha

korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan ijro etilishi majburiydir.

Qonunning 7-moddasida mahalliy vakillik organlari va ijroiya organlari faoliyatining iqtisodiy asosini tashkil etuvchi mulk shakllari berilgan bo'lib, unga ko'ra ushbu mulklarni ma'muriy-hududiy tuzilmalarning davlat mulki (kommunal mulk) hamda viloyat, tuman va shaharda mavjud bo'lib, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishga xizmat qiluvchi boshqa mulk tashkil etadi.

Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi va viloyat, tuman, shahar hokimi mutlaq O'zbekiston Respublikasi mulkida bo'lgan davlat mulki obyektlariga nisbatan ishlab chiqarish va ijtimoiy obyektlarni samarali joylashtirish, tabiiy va mehnat resurslaridan oqilona foydalanish, atrof-muhitni muhofaza etish, aholini ijtimoiy himoya qilish sohasida nazoratni amalga oshiradilar.

Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi, viloyat, tuman, shahar hokimi o'zlari idora qilayotgan hududdagi mulkchilikning turli shakliga asoslangan korxonalar uchun O'zbekiston Respublikasining qonunlarida nazarda tutilmagan, tadjnrkorlik va xo'jalik faoliyatini erkin yuritishga to'sqinlik qiladigan cheklovlarni joriy etishga haqli emaslar.

Qonunning 8-moddasiga ko'ra, xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi davlat mulkini chegaralash natijasida o'ziga berilgan yoki qonunlarga muvofiq o'zi sotib olgan obyektlarga nisbatan mulkdor vakolatlarini to'liq amalga oshiradi.

Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashining mol-mulki, budget mablag'lari, budgetdan tashqari fondlarning va aniq maqsadga qaratilgan fondlarning mablag'lari viloyat, tuman, shahar mulkidir. Viloyat, tuman, shahar ahamiyatiga ega bo'lgan muhandislik infrastrukturasini obyektlari va boshqa obyektlar, korxonalar va birlashmalar, xalq ta'limi, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot, fan va madaniyat muassasalari, viloyat, tuman, shahar mablag'i hisobidan

tashkil etilgan yoki sotib olingan, shuningdek, ulushbay asoslarda tashkil etilgan yoki sotib olingan yoxud xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashiga boshqa manbalardan bepul berilgan qimmatli qog'ozlar va moliya aktivlari viloyat, tuman, shahar mulki bo'lishi mumkin.

«Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi Qonunning III bobi mahalliy davlat hokimiyati faoliyatining moliyaviy asosiga bag'ishlangan. 13-moddaga ko'ra, viloyat, tuman, shahar budjeti daromadlariga:

- O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq olinadigan soliqlar va yig'imlar;
- Viloyat, tuman va shaharga qarashli mol-mulkni ijaraga berish yoki sotishdan keladigan tushumlar;
- Qonunlarda nazarda tutilgan hollarda viloyat, tuman, shahar mulki hisoblangan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning tekshirish vaqtida aniqlangan yashirib qolingani yoki kamaytirib ko'rsatilgan daromadlarining muayyan qismi;
- O'zbekiston Respublikasining qonunlariga muvofiq boshqa tushumlar kiritiladi.

Bundan tashqari, xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi:

- Fuqarolar, mulkchilik shaklidan qat'i nazar, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning ixtiyoriy badallari va xayriyalaridan;
- O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq undiriladigan ayrim turdagi jarimalardan;
- Budjetdan tashqari o'zga mablag'lardan tarkib topadigan budjetdan tashqari fondlar hosil qilishi mumkin. Budjetdan tashqari fondlarning mablag'lari bankdagi maxsus hisob raqamlarda turadi, ularni olib qo'yish mumkin emas, ular tegishli xalq deputatlari Kengashi va hokimning qaroriga binoan sarflanadi.

Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashining asosiy ish shakli sessiyadir. Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashining sessiyalari tegishli hokim, hokim yo'qligida esa uning o'rinbosarlaridan biri tomonidan zaruratga qarab, biroq yiliga kamida ikki marta chaqiriladi. Deputatlar uchun sessiyalar davlat ishida qatnashish maktabidir. Bu bilan har bir deputat Kengash sessiyasida masalalarni hal qilishda faol ishtirok etish, mavjud kamchiliklarni ochib tashlash, Kengash, hokimlik va ularga bo'ysungan organlar faoliyatini yaxshilashga qaratilgan takliflar kiritish imkoniyatiga ega bo'ladi. Sessiyalar, xalq deputatlarining tegishli Kengash deputatlari kamida uchdan ikki qismining tashabbusiga binoan ham chaqirilishi mumkin. Kengash sessiyasini chaqirish to'g'risidagi qarordan deputatlar sessiya ochilishidan kamida yetti kun oldin xabardor qilinadi.

Yangi saylangan xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashining birinchi sessiyasi hokim tomonidan saylovdan keyin kechi bilan uch haftalik muddat ichida chaqiriladi va u keksa deputatlardan biri tomonidan ochiladi. Xalq deputatlari Kengashi sessiyalarida hokim, u yo'qligida esa Kengashning qaroriga yoki hokimning topshirig'iga binoan mazkur Kengashning deputatlaridan biri raislik qiladi. Xalq deputatlari Kengashining har bir sessiyasini o'tkazish davrida deputatlar orasidan sessiya kotibi yoki kotibiyati saylanadi.

Xalq deputatlari Kengashining sessiyasi, basharti unda jami deputatlarning kamida uchdan ikki qismi ishtirok etsa, vakolatli hisoblanadi. Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi sessiyasida muhokama qilinayotgan masalalar bo'yicha ochiq yoki yashirin ovoz berish orqali deputatlar umumiy'sonining ko'pchilik ovozi bilan qaror qabul qilinadi.

«Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi qonunning 18-moddasida belgilanganidek, xalq deputatlari Kengashi sessiyalarini

chaqirish va o'tkazish, sessiya muhokamasiga masalalar kiritish va ularni qarab chiqish, xalq deputatlari Kengashi organlarini tashkil etish va saylash, ularning faoliyatiga doir hisobotlarni tinglash, deputatlar so'rovlarini, qaror loyihalarini qarab chiqish, ovoz berish, qarorlarni e'lon qilish, sessiyaga taklif etiladigan shaxslar sonini aniqlash tartibi, shuningdek, deputatlarning mas'uliyati va sessiya ishini tashkil etishga doir boshqa masalalar xalq deputatlari Kengashining ish tartibiga muvofiq belgilanadi.

Xalq deputatlari Kengashi huzurida sessiya muhokamasiga kiritiladigan masalalarni dastlabki tarzda qarab chiqish va tayyorlash, xalq deputatlari Kengashi qarorlarini va O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarini ro'yobga chiqarish uchun ko'maklashish, vakolatlari doirasida nazorat o'rnatish maqsadida xalq deputatlari Kengashi o'z vakolati muddatiga doimiy va muvaqqat komissiyalar tuzadi. Komissiyalar faoliyatining o'ziga xosligi, eng avvalo, shundan iboratki, ular orqali deputatlar sessiyalar oralig'idagi davrda kengash faoliyatiga bevosita va doimiy jalb qilinadi. Doimiy komissiyalar - mahalliy xalq deputatlari Kengashlarining strukturaviy organlari bo'lib, ko'pchilik deputatlarni, ya'ni ko'p sonli faollarni birlashtiruvchi, jamoatchilik asosida faoliyat yurituvchi organdir.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari va uning tizimi

1991-yil 31-avgustda O'zbekiston Respublikasining davlat suvereniteti rasman e'lon qilindi va «O'zbekiston Respublikasining davlat mustakilligi to'g'risida»gi Konstitutsiyaviy qonun qabul qilindi¹. Mazkur qonunga binoan O'zbekiston Respublikasi mustaqil demokratik davlat deb e'tirof etildi va o'zining milliy davlat va

¹ O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi. 1991 yil, №11, 146-modda.

ma'muriy-hududiy tuzilishini, hokimiyat va boshqaruv idoralari tizimini mustakil belgilash huquqiga ega bo'ldi².

Bu prinsip keyinchalik 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida mustahkamlandi. Konstitutsiyaning XXI bobi «Mahalliy davlat hokimiyati asoslari» deb nomlanib, unda ikki mustaqil organ - vakillik va ijro hokimiyati organi o'z ifodasini topdi. 1993-yil 2-sentabrda «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi qonun qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasining yangi Konstitutsiyasi qabul qilingunga qadar bo'lgan davrda mahalliy davlat hokimiyati organlari tizimining tuzilishi va faoliyatini takomillashtirish maqsadida bir necha huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, 1992-yil 4-yanvarda «O'zbekiston Respublikasining mahalliy hokimiyat idoralarini qayta tashkil etish to'g'risida»gi qonuni qabul qilindi. Bu qonun mamlakatimizda mahalliy hokimiyatning ikki mustakil organi, ya'ni vakillik va ijro organlari tizimini hamda joylarda yakkaboshchilik asosida ish olib boruvchi hokim lavozimi joriy kilinishini belgilab berdi³.

Mazkur qonun hokimlarning yukori ijro organlari tomonidan tayinlanib, tegishli xalq deputatlari kengashlari tomonidan tasdiklanishini mustahkamladi, tumanlarga bo'ysunadigan va shahar tarkibiga kiruvchi tumanlarda esa davlat hokimiyati vakillik organlari tashkil etilmaydi. Bu joylarda faqat ijroiya hokimiyat organlari - hokim lavozimi bo'lishi belgilangan.

Mahalliy ijroiya hokimiyati organlarining faoliyatini takomillashtirish, ularning ishlash imkoniyatini oshirish, huquk va majburiyatlarini yanada aniq belgilash maqsadida vakolat muddati 5 yil qilib belgilangan hokimlik instituti joriy qilinib, u bir vaqtning o'zida ham ijroiya, ham vakillik organining boshlig'i hisoblanadi.

² O'sha joyda.

³ O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi. 1992yil, № 3. 146-modda.

Viloyat hokimi, Toshkent shahar hokimi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi hamda tegishli viloyat xalq deputatlari Kengashlari, Toshkent shahar Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

Viloyat hokimlari Prezidentning joylardagi vakillari bo'lib, o'z faoliyati to'g'risida tegishli viloyat Kengashlari oldida hisob beradilar.

Tuman va shaharlarning hokimlari tegishli viloyat hokimi tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi hamda tegishli xalq deputatlari Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

Shaharlardagi tumanlarning xokimlari tegishli shahar hokimi tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi hamda xalq deputatlari shahar Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

Tumanlarga bo'ysunadigan shaharlarning hokimlari tuman hokimi tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi hamda xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan tasdiklanadi.

Viloyat, tuman va shahar hokimlari tegishli xalq deputatlari Kengashlari ichidan tayinlanadi hamda tasdiqlanadi.

«Konstitutsiyani, qonunlarni buzgan yoki o'z niyati va qadr-qimmatiga dog' tushiradigan xatti-harakat sodir etgan tuman va shahar hokimlarini Prezident o'z karori bilan lavozimidan ozod etishga haqli»⁴.

1992-yil 4-yanvarda kabul qilingan «O'zbekiston Respublikasida mahalliy hokimiyat organlarini kayta tuzish to'g'risida»gi Konstitutsiyaviy qonun mahalliy davlat hokimiyati asoslarini shakllantirish sohasida alohida ahamiyat kasb etdi. O'zbekiston Respublikasida mahalliy hokimiyat organlari tizimini shakllantirish soqasida qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Bu hujjatlar orasida 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan O'zbekiston

⁴ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -T.: «O'zbekiston», 2003,24-6.

Respublikasining Konstitutsiyasi, 1993-yil 2-sentabrda qabul qilkyagan «Mahalliy davlat xokimiyati to'g'risida»gi va «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi Qonunlar, 1994-yil 5-mayda kabul qilingan «Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar kengashlariga saylovlar to'g'risida»gi Qonun va boshqalar muhim o'rin egallaydi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XXI bobi «Mahalliy davlat hokimiyati asoslari» deb nomlanib, unda mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining konstitutsiyaviy-huquqiy asosi o'z ifodasini topgan. Mazkur bobda mahalliy davlat hokimiyati organlarining tizimi, mavqei, vazifalari, tuzilish tartibi konstitutsiyaviy darajada mustahkamlangan.

Shuningdek, mahalliy vakillik organlari tizimi bilan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish tizimi bir-biridan ajratildi. Endilikda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish tizimi vakillik organlari tizimiga kirmaydi.

Konstitutsiya mahalliy vakillik organlarining ikki bo'g'inli tizimini mustahkamladi'. Shuningdek, bu qoida «Mahalliy davlat hokimiyati asoslari to'g'risida»gi Qonunda o'z ifodasini topdi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 99-moddasiga asosan «Viloyatlar, tumanlar va shaharlarda (tumanga bo'ysunadigan shaharlardan, shuningdek shahar tarkibiga kiruvchi tumanlardan tashqari) hokimlar boshchilik qiladigan xalq deputatlari Kengashlari hokimiyatning vakillik organlari bo'lib, ular davlat va fuqarolarning manfaatlarini ko'zlab o'z vakolatlariga taalluqli masalalarni hal etadilar», deyilgan bo'lsa, «Mahalliy davlat hokimiyati asoslari to'g'risida»gi Qonunning 1-moddasida «Viloyatlar, tumanlar va shaharlarda (tumanga bo'ysunadigan shaharlardan, shuningdek shahar tarkibiga kiruvchi tumanlardan tashqari) xalq deputatlari Kengashlari davlat hokimiyatining vakillik organlari», deb belgilandi.

Natijada, shu davrgacha O'zbekiston Respublikasi ma'muriy-hududiy tuzilishining eng quyi bo'linishlari - qishloq, posyolka

(shaharcha) larda vakillik organlari tuzilmaydigan bo'lib, ular o'rniga fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tuziladigan bo'ldi.

Shunday qilib, mahalliy vakillik organlarining ikki bo'g'inli tizimi, ya'ni tuman, shahar xalq deputatlari kengashlari - quyi bo'g'in; viloyatlar va Toshkent shahar xalq deputatlari kengashlari - yuqori bo'g'in vujudga keldi.

Shuningdek, mavjud hududiy tuzilishlarning ham ba'zilarida, masalan, shahar tarkibiga kiruvchi tumanlarda va tumanga bo'ysunuvchi shaharlarda vakillik organlari tuzilmaydigan bo'ldi. Bu joylarda faqat ijroiya hokimiyati organlari rahbari - hokimlar bo'lishi nazarda tutiladi.

O'zbekistonda tumanlarning ikki turi-viloyatlar tarkibiga kiruvchi va shaharlar tarkibiga kiruvchi tumanlar, shaharlarning uch turi-tumanga bo'ysunuvchi, viloyatga bo'ysunuvchi va respublikaga bo'ysunuvchi shaharlar mavjud.

Mahalliy davlat hokimiyatining o'ziga xos xususiyatlaridan biri shuki, mahalliy vakillik organlariga ham ijroiya hokimiyati boshlig'i-hokim rahbarlik qiladi, hokimning rahbarligi, asosan, vakillik organlarining ishini tashkil etish va yo'naltirishdan iborat.

1993-yil 2-sentabrda O'zbekiston Respublikasining «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi Qonuni qabul qilindi. Ushbu qonunda mahalliy vakillik va ijroiya hokimiyati organlarining tizimi, ularni tashkil kilish tartibi, vazifalari, vakolatlari, iqtisodiy va moliyaviy asoslari belgilab berildi.

Qoraqalpog'iston Respublikasida mahalliy davlat hokimiyati organlarining faoliyati O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi Qonun hamda Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitutsiyasi¹ va qonunlari bilan tartibga solinadi.

O'zbekiston Respublikasida mahalliy davlat hokimiyati organlarining o'ziga xos hususiyati quyidagilardan iborat:

Birinchidan, bu tizim demokratik xarakterga ega bo'lib, u mahalliy vakillik organlari xalq ommasining o'zi tomonidan tuzilishida, ular tomonidan saylovlarning o'tkazilishida, umumiy, teng, to'g'ridan-to'g'ri saylov hukuqi asosida mahalliy hokimiyat organlarining tashkil etilishida, saylovlarning to'g'ri o'tkazilishi ustidan nazorat o'rnatilishida ko'rinadi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlarining demokratik xarakteri, yana, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi qonun hamda boshqa qonunlarda belgilangan demokratik prinsiplarga, ya'ni xalq deputatlari Kengashlari hokimiyatning vakillik organlari bo'lib, ular davlat va fuqarolarning manfaatlarini ko'zlab o'z vakolatlariga taalluqli masalalarni hal etishlari, normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilishda hamda Konstitutsiya va qonunlarga zid kelmaydigan boshqa vakolatlarni amalga oshirishlari, xalq deputatlari Kengashlari faoliyatiga rahbarlik qilishlari, respublika va mahalliy ahamiyatga molik masalalarni muhokama qilishda qatnashishlari, hal qilinishi lozim bo'lgan masalalarni ishchanlik, oshkoralik ruhida muhokama qilish yo'li bilan hal etishlari, muntazam ravishda ijro organi va xalq deputatlari kengashlari tomonidan tuzilgan organlarning hisobotlarini tinglab borishlari, Kengashlar va ular tomonidan tuzilgan organlarning o'z faoliyatlari va qabul qilgan karorlari to'g'risida muntazam ravishda axborot berib borishlarida ifodalanadi.

Ikkinchidan, mahalliy davlat hokimiyati organlari hokimiyatning o'ziga xos tizimini tashkil etishi bo'lib, mahalliy hokimiyat organlari O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlarini, Prezident farmonlarini, davlat hokimiyati yuqori organlarining qarorlarini amalga oshiradilar, mahalliy davlat hokimiyati quyi organlari faoliyatiga

rahbarlik qiladilar, respublika va mahalliy ahamiyatga molik masalalarni muhokama qilishda qatnashadilar. Shuningdek, viloyat, tuman va shahar uchun umumiy bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish vazifalari amalga oshirilishini, joylarda qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining boshqa qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasi qabul qilgan hujjatlar, yuqori turuvchi xalq deputatlari Kengashlari va hokimlar qarorlarining ijrosini, O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari bilan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari o'rtasidagi aloqalarni, aholini viloyat, tuman va shaharni boshqarishga jalb etishni ta'minlaydilar¹.

Uchinchidan, mahalliy vakillik va ijro organlari mahalliy davlat hokimiyati boshqaruvining muhim funksiyalarini o'zida mujassamlashtiradilar. Bu o'ziga xoslik O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi qonunga asosan xalq deputatlari Kengashlari va hokimlar bevosita va o'z organlari orqali davlat, xo'jalik va ijtimoiy madaniy qurilishning barcha tarmoqlariga rahbarlikni amalga oshiradilar, qarorlar qabul qiladilar va ularning ijrosini ta'minlaydilar, hamda bu qarorlarni amalga oshirilishini nazorat qiladilar.

To'rtinchidan, hudud aholisi va saylovchilar mahalliy vakillik va ijro organlarining faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiradilar. Bu asosan, deputatlarning davlat hokimiyatining mahalliy vakillik organlari - xalq deputatlari Kengashlaridagi xalqning to'la huquqli vakillari sifatidagi burch va vazifalaridan kelib chiqib, ularning o'z faoliyatlari va xalq deputatlari Kengashlarining ish faoliyatlari to'g'risida saylovchilar oldida muntazam hisobot berib turishlarida hamda saylovchilarning ishonchini oqlamagan deputat saylovchilar ko'pchiligining qarori bilan

¹ Qarang: «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»TM Qonun. / O'zbekistonning yangi konunlari. 9-son. - T.: «Adolat», 1995, Z-b.

qonunda belgilangan tartibda istagan vaqtlarida chaqirib olinishida ifodalanadi.

Beshinchidan, mahalliy davlat hokimiyati tizimida vakillik va ijroiya organlari faoliyatida bevosita va vakillik demokratiyasining turli shakllari bilan jonli aloqa o'rnatiladi. «Davlat hokimiyati boshqaruv organlari fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining shakllanishi va rivojlanishi uchun zarur shart-sharoit yaratadilar, ularning ishlariga aralashishga yo'l qo'ymaydilar, fuqarolarga o'zini o'zi boshqarishga doir huquqlarini amalga oshirishda ko'maklashadilar»¹.

¹ «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'grisida»gi Qonun. / O'zbekistonning yangi konunlari. 21-son. -T.: «Adolat», 1999, 115-6.

II-BOB. IMAHALLIY HOKIMIYAT ORGANLARINING HUQUQIY ASOSLARI

Mahalliy davlat hokimiyati organlarining vazifalari, vakolatlari va konstitutsiyaviy asoslari

1992-yil 8-dekabrdagi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi mahalliy davlat hokimiyati organlarini rivojlantirishdagi muhim davrni boshlab berdi.

Konstitutsiyaning 11-moddasiga asosan «O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi - hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linish prinsipiga asoslanadi».

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 102-moddasida ilk bora mahalliy davlat hokimiyatini vakillik va ijro hokimiyati organlariga bo'linish prinsipi konstitutsiyaviy normalarda mustahkamlab qo'yildi.

Bu prinsipga asosan, xalq deputatlari Kengashlari - mahalliy vakillik organi sifatida, hokimlar - ijro hokimiyati organi sifatida faoliyat yuritadigan bo'ldi.

Shunday qilib, O'zbekistonda konstitutsiyaviy jihatdan mahalliy davlat hokimiyati organlarining bo'linish prinsipi amalga oshirildi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 100-moddasida mahalliy hokimiyat organlari ixtiyoridagi vazifalar va vakolatlarning konstitutsiyaviy asosi mustahkamlab qo'yilgan bo'lsa, «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi Qonunda esa ularning vakolatlari aniq qilib belgilab berildi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 100-moddasida mahalliy hokimiyat organlari ixtiyoriga quyidagilar kiradi:

qonuniylikni, huquqiy tartibotni va fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash;

- hududlarni iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlantirish;

- mahalliy byudjetni shakllantirish va uni ijro etish, mahalliy soliqlar, yig'implarni belgilash, byudjetdan tashqari jamg'armalarni hosil qilish;
- mahalliy kommunal xo'jalikka rahbarlik qilish;
- atrof-muhitni muhofaza qilish;
- fuqarolik holati aktlarini qayd etishni ta'minlash;
- normativ hujjatlarni qabul qilish hamda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga va qonunlariga zid kelmaydigan boshqa vakolatlarni amalga oshirish.

Bu vazifalar mahalliy vakillik va ijro hokimiyati organlarining birga amalga oshiradigan vazifalaridir. Ularning vakolatlari shu vazifalardan kelib chiqadi.

Qonuniylikni, huquqiy tartibotni va fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash mahalliy davlat hokimiyati organlari oldida turgan eng asosiy vazifa hisoblanadi. Bu borada mahalliy davlat hokimiyati organlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar (sud hokimiyati, prokuratura, nazorat inspeksiyasi, ichki ishlar organlari, adliya va boshqa organlar) bilan o'zaro hamkorlikda ish olib boradi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari bu sohada o'z vakolatlarini amalga oshirish borasida huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan bir xil munosabatda faoliyat ko'rsatishi bilan birga ularning ishlarini muvofiqlashtirib turadi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari qonuniylikni ta'minlash uchun fuqarolarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish sohasida kuchli va keng faoliyat olib borishlari kerak bo'ladi.

Qonuniylik, huquq-tartibotini muhofaza qilish sohasidagi asosiy vazifalar huquqni muhofaza qiluvchi organlar zimmasiga yuklatilgan. Mahalliy davlat hokimiyati organlari bu sohada asosan o'z vazifasidan kelib chiqib tegishli hudud aholisining irodasini ifodalab huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan o'ziga xos munosabatlar o'rnatadi. Mahalliy davlat hokimiyati organlari qonuniylikni ta'minlash sohasida

ijtimoiy muhitni yaxshilash, vakillik organlari vositasida bu sohadagi ishlarni nazorat qilish, aholining bu sohaga doir fikrini shakllantirish, huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyati yo'nalishini muhim masalalarga qaratish kabi ishlarni amalga oshiradi.

Shu bilan birgalikda, Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 19-apreldagi 180-sonli qaroriga binoan, tegishli davlat organlari va jamoat tuzilmalarining jazoni o'tash joylaridan ozod qilingan shaxslarni ishga joylashtirishda va ularning ijtimoiy-maishiy ta'minotida yordam ko'rsatish jarayonida qatnashishni ta'minlash maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, Toshkent shahar hamda shahar va tuman hokimliklari huzurida jazoni o'tash joylaridan ozod qilingan shaxslarga ijtimoiy-maishiy jihatdan va ishga joylashishda yordam ko'rsatish bo'yicha maxsus komissiyalar tashkil etilgan.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari o'z hududida qonuniylikni, huquq tartibotni mustahkamlash, fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash, jinoyatchilikka qarshi kurash choralarining umumiy yo'llarini, tadbirlarini ishlab chiqadi va shu tadbirlarni bajarilishini nazorat qiladi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari tegishli hududda iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlantirishga rahbarlik qiladi. O'zbekiston Respublikasi bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tish munosabati bilan iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sohalarni rejalashtirish tubdan o'zgardi. Hokim hududni rivojlantirishning istiqbolga mo'ljallangan dasturlarini ishlab chiqadi va bu masalalarni Kengash tasdig'iga kiritadi.

Mahalliy hokimiyat organlari o'z hududida sanoat, qurilish, aloqa vositalari, qishloq xo'jaligi, aholiga turli xizmat ko'rsatish sohalari, ijtimoiy sohalarga, madaniy sohalarga bevosita rahbarlikni amalga oshiradi. Shu idoralarning rahbarlarini lavozimiga tayinlaydi, lavozimidan ozod qiladi, ularning faoliyatini nazorat qiladi va hisobotini

eshitadi. Bundan tashqari mahalliy davlat hokimiyati organlari tegishli hududda joylashgan, lekin yuqoriga bo'ysunuvchi korxona, tashkilot, muassasa faoliyatiga ham ta'sir qila oladi. Mahalliy davlat hokimiyati organlari joylarda qonuniyligni ta'minlashni nazorat etish prinsipidan kelib chiqib o'z hududidagi vazirliklar va boshqa idoralarga bo'ysunuvchi korxona, tashkilot, muassasalarni ham o'z vakolatlari doirasida nazorat qilish huquqiga egadir.

Xalq deputatlari Kengashi tomonidan mahalliy byudjet va uni amalga oshirish to'g'risidagi hisobot tasdiqlanadi. Mahalliy byudjet va uni amalga oshirilishi mahalliy soliqlar va yig'imlar hajmidan kelib chiqib (qonunga asosan) aniqlanadi. Bu esa o'z o'zidan mahalliy soliqlar, yig'imlar va to'lovlarga nisbatan imtiyoz yaratadi. Bu o'rinda mahalliy vakillik organlari va ijroiya organlarining bu masaladagi vakolatlari ajratib ko'rsatilgan. Mahalliy ijroiya hokimiyati vakolatiga byudjet loyihalarini, byudjetning ijrosi to'g'risidagi hisobotni tayyorlash, ijroni tashkil qilish kirs, mahalliy vakillik hokimiyati vakolatiga byudjetni, uning ijrosi to'grisidagi hisobotni tasdiqlash kiradi. Shu bilan birga byudjet ijrosini nazorat qilish vakolati ularning har ikkalasiga ham tegishlidir.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari o'z hududida kommunal xo'jalik faoliyatiga rahbarlikni amalga oshiradi, ular faoliyatini muvofiqlashtiradi va nazorat qiladi. Kommunal xo'jalik tarkibiga aholi turar-joy fondi va u bilan bog'liq ta'mirlov qurilish va loyihalash tashkilotlari, yordamchi xo'jaliklar, ishlab chiqarish-texnika bazalari, suv ta'minoti, kanalizatsiya, gazlashtirish, isitish, elektr energiyasi bilan ta'minlash tizimlari, mehmonxona va boshqa ko'plab manbaalar kiradi. Kommunal xo'jalik tarmoqlari ijro hokimiyati (hokimliklar)ning tuzilmaviy bo'linmalari orqali boshqariladi. Ularning boshliqlari lavozimiga hokim tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi, bu masala sessiyada tasdiqlanadi. O'zbekiston Respublikasining «Uy-

joy mulkdorlarining shirkatlari to'g'risida»gi qonuniga binoan ijro hokimiyati (hokimlar) kommunal soha ishlarini shirkat boshqaruvi bilan birgalikda muvofiqlashtirib boradilar.

Atrof-muhitni muhofaza qilish bevosita tabiatni muhofaza qilish bilan bog'liq. Mahalliy davlat hokimiyati organlari atrof-muhitni muhofaza qilishda turli masalalarni hal qiladilar. Bular yer (tuproq), yer osti boyliklari, suv, havo, o'rmon, o'simlik va hayvonot dunyosini avaylab asrash, ulardan unumli foydalanish bilan bog'liq masalalar hisoblanadi. Shu sohalar bo'yicha mahalliy davlat hokimiyati organlarining vazifalari va vakolatlari qo'shimcha ravishda tegishli qonunlar, «Yer to'g'risida», «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida»gi Qonunlarda va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilab qo'yilgan. Masalan, «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida»gi Qonunning 20-moddasida davlat hokimiyati va boshqaruvi mahalliy idoralarining tabiatni muhofaza qilish sohasidagi vakolatlari belgilangan. Mahalliy davlat hokimiyati organlari bevosita shu masalalar bilan shug'ullanuvchi idoralarning faoliyatiga rahbarlik qiladi, ularning faoliyatini muvofiqlashtiradi hamda nazorat qiladi. Mahalliy davlat hokimiyati organlari atrof-muhitni, tabiatni muhofaza qilish borasida tegishli huquqiy normalarni buzgan yuridik va jismoniy shaxslarga nisbatan choralar ko'rish huquqiga ega. Masalan, ular atrof-muhitga zarar yetkazayotgan mahalliy ahamiyatga ega obyektlar faoliyatini vaqtincha yoki butunlay to'xtatish va qayta ixtisoslashtirish to'g'risida qarorlar qabul qilishi mumkin.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qiluvchi organlarning faoliyatiga rahbarlik qiladi. Mahalliy davlat hokimiyati organlari fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qiluvchi organlarni tuzish masalasini hal qiladi, bu organlarning rahbarlarini lavozimiga tayinlash va lavozimidan ozod qilishda ishtirok etadi hamda bu organlar faoliyati ustidan nazorat

qiladi. Viloyatlar va Toshkent shahrida bu ishlar adliya organlari orqali amalga oshirilsa, qishloq va kichik shaharlarda bu vazifalar bevosita mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan bajariladi. Ayrim fuqarolik holati dalolatnomalari shaharchalar, qishloqlar va ovullar fuqarolar yig'inlarining raislari (oqsoqollari) tomonidan ham ro'yxatga olinadi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari o'z vakolatlari doirasida normativ hujjatlar qabul qiladi. Bu hujjatlar qaror va farmoyish shaklida bo'lishi mumkin. Mahalliy vakillik organlari o'z qarorlarini jamoaviy (kollegial) asosda qabul qiladi, hokimlar esa yakkaboshchilik prinsipi asosida qabul qiladi. Mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan qabul qilingan qarorlar hududda bajarilishi majburiy hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi Qonunida mahalliy vakillik va ijro hokimiyati organlarining vakolatlari alohida moddalarga ajratilgan holda aniq belgilab qo'yilgan.

Masalan, mahalliy vakillik organlari vakolatiga byudjetni tasdiqlash, uni ijrosi haqidagi hisobotni tasdiqlash kirsam, hokimlar vakolatiga byudjet loyihalarini tayyorlash, byudjetning ijrosi haqidagi hisobotlarni tayyorlash, ijroni tashkil etish kabilar kiradi. Bu borada mahalliy vakillik va ijroiya organlari (hokimlar)ning har ikkalasiga taalluqli vakolatlar ham mavjud. Masalan, byudjetning ijrosini nazorat qilish ularning har ikkalasining ham vakolatiga kiradi. Mahalliy soliqlar, yig'imlar, boj miqdorini belgilash, mahalliy byudjetga tushadigan mahalliy soliqlar mahalliy vakillik organlarining vakolati bo'lib, ular ba'zi paytlarda bu vakolatlarning ayrimlarini, masalan, soliq va yig'imlar bo'yicha imtiyozlar belgilashni tegishli ijroiya hokimiyati organlari-hokimlarga ham berishi mumkin. Mahalliy vakillik organlarining bu boradagi vakolatlari O'zbekiston Respublikasining «Yer to'g'risida»gi, «Mahalliy soliqlar va yig'imlar to'g'risida»gi

Qonunlarida va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarida belgilab berilgan.

Mahalliy hokimiyat organlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va amaldagi qonunlariga zid kelmaydigan boshqa vakolatlarni ham amalga oshiradilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasi bevosita o'z hujjatlari bilan mahalliy davlat hokimiyati organlariga yangi vazifalar yuklashi, yangi vakolalar berishi mumkin. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994-yil 24-noyabrdagi «Yerdan foydalanish samaradorligini oshirish to'g'risida»gi farmoni bilan tuman va shahar hokimlariga uy-joy qurish va shaxsiy xo'jalik yuritish uchun yerni sotish vakolati berildi.¹ Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 30-iyundagi «Viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari apparati tuzilmasini takomillashtirish to'g'risida»gi 301-son qarori va 1997-yil 30-sentabrdagi «Shaharlar va tumanlar hokimliklari apparati tuzilmasini takomillashtirish to'g'risida»gi 459-son qarori bilan bu hokimliklar zimmasiga hududlarni iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirish yuzasidan kompleks dasturlarni ishlab chiqish va hukumat dasturlarini amalga oshirish, xalq xo'jaligi tarmoqlarida islohotlarni chuqurlashtirish va xalq farovonligini oshirishni ta'minlash; joylarda xo'jalik yuritish shakllarini takomillashtirish, moliya va to'lov intizomini mustahkamlash, o'zaro hisob-kitoblarni takomillashtirish; tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va sog'lom raqobat muhitini yaratish, mahalliy xususiyatlarni hisobga olgan holda xo'jalik yurituvchi subyektlarni tarkibiy qayta o'zgartirish bo'yicha takliflar tayyorlash; tabiiy va mehnat resurslaridan odilona foydalanish, atrof-muhitni muhofaza etish, fuqarolarni ijtimoiy va huquqiy himoya qilish tadbirlarini amalga oshirish; qonunlar, Oliy

¹ Shaharchalar, kishloklar va ovullar fukarolar yig'inlarining raislari (oksokollari) belgilangan tartibda tugilish, o'lim, nikox tuzish va nikoxdan ajratish, otalikni belgilash kabi fukarolik xolati lalolatnomalarini ro'yxatga olkshning ayri.ch turlarini bajarishlari mumkin.

Majlis qarorlari, Prezident farmonlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasi va xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar kengashlari va ularning hokimliklari qarorlari va farmoyishlari ijrosini ta'minlash; vazirliklar, respublika idoralari va tashkilotlari hududiy bo'linmalarining faoliyatini muvofiqlashtirish; mahalliy hokimiyat va o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish, ularga rahbarlik qilish va ishini nazorat qilish kabi vazifalar yuklangandi.

Davlat organlari boshqa ijtimoiy institutlar kabi yangi vujudga kelayotgan munosabatlar ta'sirida mukammallashib boradi. Mahalliy davlat hokimiyati organlari ham demokratik islohotlar, davlat qurilishini erkinlashtirish jarayonida tobora takomillashib bormoqda. Davlat qurilishini erkinlashtirish davlat boshqaruvini nomarkazlashtirish, ya'ni markaziy hokimiyat organlari vakolatlarini quyi organlarga o'tkazishni taqozo etadi. Masalan, Shvetsiya va boshqa ko'pchilik davlatlarda 1980-yildan 1994-yilgacha davlat hokimiyati vakolatlarining katta qismini mahalliy hokimiyat organlariga o'tkazildi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XXI bobiga asosan mahalliy davlat hokimiyati organlari - mahalliy vakillik organlari va mahalliy ijroiya organlariga bo'linadi.

Mahalliy vakillik organlari o'z faoliyatini jamoaviy (kollegial)¹ asosda olib borsa, ijroiya organlari yakkaboshchilik asosda faoliyat qiladi. O'zbekiston Respublikasida mahalliy vakillik organlari va ijroiya organlarining o'zaro munosabati masalasi Konstitutsiyaning 11-moddasida belgilangan hokimiyatning bo'linish prinsipi asosida amalga oshirilib, endilikda ularning o'zaro munosabati «bir-birini «tiyib turish», nazorat qilish, hokimiyatni biror organ qo'lida to'planib qolishiga to'sqinlik qiluvchi mexanizmlar» asosiga o'rnatilgan.

Mahalliy davlat hokimiyati organlarining faoliyati asoslari Konstitutsiya XXI bobining 99, 101, 102, 103, 104-moddalarida mustahkamlangan bo'lsa, mahalliy ijro hokimiyati rahbari hokimlarning

faoliyati «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi Qonunda mahalliy vakillik va ijroiya organlarining huquq va vazifalari hamda ularning o'zaro munosabatlarining huquqiy asoslari aniq belgilandi.

Bu normativ - huquqiy hujjatlarga asosan, mahalliy vakillik va ijroiya hokimiyatiga hokimlar rahbarlik qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 99-moddasiga ko'ra, viloyatlar, tumanlar va shaharlarda (tumanga bo'ysunadigan shaharlardan, shuningdek shahar tarkibiga kiruvchi tumanlardan tashqari) hokimlar boshchilik qiladigan xalq deputatlari Kengashlari hokimiyatning vakillik organlari bo'lib, ular davlat va fuqarolarning manfaatlarini ko'zlab o'z vakolatlariga taalluqli masalalarni hal etadilar.

Mahalliy vakillik organlari o'z faoliyatini jamoaviy asosda amalga oshiradi. Xalq deputatlari kengashlari ishining asosiy tashkiliy-huquqiy shakli sessiya hisoblanadi. Sessiya majlislarida deputatlarning to'la katnashishi talab qilinadi.

Mahalliy vakillik organlarining hamma pog'onasi saylov o'tkazish yo'li bilan tashkil qilinadi. Mahalliy davlat hokimiyati organlari - xalq deputatlari Kengashlari vakillik xarakteriga ega bo'lib, keng xalq ommasi tomonidan umumiy, teng, to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan saylanadi.

O'zbekiston Respublikasi saylov qonunchiligida demokratik huquqiy davlatga xos xususiyatlar o'z ifodasini topgan. Bu xususiyatlar, avvalo, saylovchilar huquqlarini kafolatlanishi, saylovlarning ko'ppartiyaviylik asosida o'tkazilishi, saylov komissiyalarining o'ziga xos shakllanishi tartibi va ularning tarkibiga biron bir partiyaga mansub shaxslarni kiritilmasligi qoidalarini o'rnatilishida o'z ifodasini topdi.

Mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarini saylash tartibi «Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risida»gi Qonun bilan tartibga solinadi. Bu qonunga asosan

mahalliy vakillik organlarining hamma bo'g'inlari saylov yo'li bilan tashkil qilinadi. Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlariga saylovni tartibga soluvchi qonun, avvalgi qonunlardagi demokratik qadriyatlarni saqlab qolish bilan birga, ko'pgina yangi holatlarni joriy etdi. Bu yangi holatlardan asosiylari quyidagilar:

Birinchidan, saylovlarning ko'ppartiyaviylik asosida o'tishi;

Ikkinchidan, mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlariga 21 yoshdan saylanish mumkinligi;

Uchinchidan, mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlariga saylanadigan deputatlar sonining qisqartirilishi (viloyatlar va Toshkent shahar kengashlariga 60 tagacha, tuman va shahar kengashlariga 30 tagacha deputat saylanishi mumkin);

To'rtinchidan, deputatlikka nomzod ko'rsatish huquqiga siyosiy partiyalar, hamda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari ega bo'lishi ko'zda tutilgan.

1994-yil 5-mayda «Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'grisida»gi Qonun qabul qilindi. 2000-yil 26-may va 2003-yil 29-avgustda ushbu qonunga o'zgartirishlar kiritildi.

Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashlariga saylov hududiy bir mandatli saylov okruglari bo'yicha ko'p partiyalilik asosida 5 yil muddatga o'tkaziladi.

Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari deputatlari umumiy, teng va to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan saylanadilar.

Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga deputatlar saylovi umumiy bo'lib, saylov kuni 18 yoshga to'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari saylash (faol) huquqiga egadirlar. Saylov kuni 21 yoshga to'lgan hamda kamida 5 yil O'zbekiston Respublikasi hududida muqim yashayotgan O'zbekiston fuqarolari saylanish (passiv) huquqiga egadirlar. Sud tomonidan muomalaga

layoqatsiz deb topilgan fuqarolar, shuningdek, sud hukmi bilan ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan shaxslar saylovda qatnashmaydilar.

«Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risida»gi Qonunning 20-moddasiga asosan xalq deputatlari viloyat Kengashlari deputatligiga nomzodlar ko'rsatish huquqiga siyosiy partiyalar, bevosita fuqarolar egadirlar. Tuman va shahar Kengashlari deputatligiga nomzodlar ko'rsatish huquqiga siyosiy partiyalar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, shuningdek bevosita fuqarolar egadirlar.

O'zbekiston Respublikasi Parlamentining yuqori palatasi - Senatni shakllantirish bevosita xalq deputatlari Kengashlariga o'tkazilgan saylovlar natijalari bilan bog'liqdir.

«O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati a'zolarini saylash tartibi to'g'risida»gi Nizomga muvofiq, Senat a'zoliciga nomzodlar mahalliy Kengashlarning davlat va jamiyat faoliyatida katta amaliy tajribaga ega hamda alohida xizmat ko'rsatgan eng obro'li deputatlari orasidan Oqsoqollar Kengashlari tomonidan ko'rsatiladi.

Senatga saylov mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari saylanganidan keyin bir oydan kechiktirmay o'tkaziladi.

Oliy Majlis yuqori palatasi - Senat Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlarning har biridan vakil qilib yuboriladigan a'zolardan iborat tarkibda tuziladi. Har bir ma'muriy-hududiy birlik, tenglik prinsipi asosida o'zlarining 6 nafar vakillarini Senat a'zoliciga taqdim etadi.

Senat a'zolari Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlarining tegishli qo'shma majlislarida mazkur deputatlar orasidan yashirin ovoz berish yo'li bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan teng miqdorda - 6

kishidan saylanadi¹. Demak, saylov asosida senator bo'ladigan nomzod, avvalo, tegishli tuman, shahar, viloyatlar yoki Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorgi Kengesi deputati bo'lishi shart.

Konstitutsiyaning ushbu normasiga asosan Senat a'zoliciga nomzod har bir viloyatda tegishincha viloyat hamda shu viloyat hududidagi shahar va tuman Kengashlari deputatlarining qo'shma majlislarida ko'rsatiladi, qo'shma majlisda ishtirok qilayotgan deputatlar o'z oralaridan 6 nafarini Senat a'zoliciga viloyatlar vakillari sifatida saylaydi, shuningdek Toshkent shahri va Qoraqalpog'iston Respublikasi ham o'z hududiy vakillik organlari deputatlarining qo'shma majlisida oltitadan o'z vakillarini saylab Senat tarkibiga kiritadi.

Shunday qilib, har bir ma'muriy-hududiy birlik (viloyatlar, Toshkent shahri va Qoraqalpog'iston Respublikasi)dan oltitadan saylab olingan, jami - 84 nafar nomzod saylov asosida Oliy Majlisning yuqori palatasi - Senat a'zosi hisoblanadi.

Senat tarkibini shakllantirishda tayinlash prinsipi ham qo'llanilib¹, uning asosida 16 nafar kishini Senat tarkibiga kiritish belgilangan.

Oliy Majlis Senatining o'n olti nafar a'zosi fan, san'at, adabiyot ishlab chiqarish sohasida hamda davlat va jamiyat faoliyatining boshqa tarmoqlarida katta amaliy tajribaga ega bo'lgan hamda alohida xizmat ko'rsatgan² eng obro'li fuqarolar orasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi.

Senat a'zosi bo'lishlik uchun nomzodga nisbatan ba'zi talablar qo'yilgan. Saylov kuniga qadar 25 yoshga to'lgan hamda O'zbekiston hududida kamida 5 yil muqim yashagan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi Senat a'zosi bo'lish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 76-moddasiga asosan Senatning vakolat muddati-5 yil qilib belgilangan¹.

Senat tarkibida jamiyatning deyarli barcha ijtimoiy qatlamlari vakillari faoliyat yuritadi. Senatorlarning qariyb 15 foizi agrar soha, 20 foizdan ortig'i ta'lim, ilm-fan va madaniyat sohasi, 10 foizi sanoat majmui sohasida faoliyat qilayotganlardir².

Senat a'zolarining 15 foizini turli sohalarda xizmat qilayotgan xotin-qizlar tashkil qiladi.

Senatorlar orasida yetti millat vakillari bo'lib, o'zbeklar - 89 foizni, qoraqalpoqlar, ruslar, turkmanlar, qozoqlar, ukrainlar, koreyslar - 11 foizini tashkil qiladi³.

Senat yuqori palata sifatida o'ziga xos xususiyatlar va vakolatlarga ega. Senat faoliyatining tashkiliy shakli uning zaruratga qarab, lekin yiliga kamida uch marta o'tkazilib turiladigan majlislaridir. Senat majlislarida senatorlar umumiy sonining kamida yarmi ishtirok etgan takdirda vakolatli hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, konstitutsiyaviy qonunlarni ma'qullash, ularga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi masalalarni ko'rib chiqishda senatorlar umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi hozir bo'lishi shart.

Senat shakllantirilgandan keyin uning birinchi majlisi bir oydan kechiktirmay o'tkaziladi. Senatning birinchi majlisi Markaziy saylov komissiyasining Raisi tomonidan ochiladi va Senat Raisi saylangunga qadar raislik qiladi.

Senatning birinchi majlisi ishini tashkil etish uchun muvaqqat kotibiyat va sanoq komissiyasi saylanadi.

¹ Kanada, GFR, Iordaniya mamlakatlarida tayinlash usuli orqali yuqori palata tarkibini shakllantirish mavjud.

² Senat a'zoliciga nomzodlar davlat miqyosida amaliy tajribaga ega, davlat va jamiyat xayotining barcha sohalaridan xabardor, katta hurmat va e'tiborga ega bo'lib, el-yurtning ishonchini qozongan shaxslar bo'lishi lozim. Ular ma'muriy-hududiy birliklar vakili sifatida hudud manfaatlari ijobiy hal etishda amaliy yordam beradilar.

³ Qarang: B.Mustafoev. O'zbekistonda saylov qonunchiligi va amaliyoti. - T.: 2005,62-6.

Senatning birinchi majlisida, qoida tariqasida, uning faoliyatini tashkil etish bilan bog'liq quyidagi masalalar ko'rib chiqiladi:

- elektron tizimdan foydalanish ustidan muvaqqat nazorat guruhini saylash;
- Senat Raisi va uning o'rinbosarlarini saylash;
- Senat qo'mitalarini tuzish¹.

Senatning navbatdan tashqari majlislari O'zbekiston Respublikasining Prezidenti, Senatning Raisi taklifiga yoki senatorlar umumiy sonining kamida uchdan bir qismining taklifiga binoan chaqirilishi mumkin.

Senatning majlislari ochiq, oshkora o'tkaziladi va ommaviy axborot vositalari tomonidan yoritilib boriladi. Senatning qaroriga binoan majlislar yopiq holda ham o'tkazilishi mumkin.

Qonunda belgilangan hollarda Senat va Qonunchilik palatasining qo'shma majlislari o'tkaziladi. Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlislari Prezidentning, Senat Raisining, Qonunchilik palatasi Spikerining taklifiga yoki tegishincha senatorlar yohud Qonunchilik palatasi deputatlari umumiy sonining kamida uchdan bir qismining taklifiga binoan chaqirilishi mumkin.

«Senat qonunchilik jarayonida o'ziga xos funksiyani amalga oshirib qonunlarni puxta va pishiq yaratilishiga, shuningdek shoshma-shosharlik bilan qabul qilingan qonunlarni qayta ishlanishi uchun mas'uliyat bilan qarovchi hamda hududlar manfaatining mushtarakligini ta'minlovchi organ sifatida faoliyat yuritadi».

Shuningdek, Senat O'zbekiston Respublikasi qonunlarini ko'rib chiqadi, Prezident tomonidan taqdim etiladigan muayyan lavozimlarga nomzodlarni ko'rib chiqadi va tasdiqlaydi, Prezident farmonlarini tasdiqlaydi, davlat byudjetini va boshqa masalalarni ko'rib chiqadi, nazorat faoliyatini amalga oshiradi.

Xalq deputatlari Kengashlarining asosiy ish shakli sessiya hisoblanadi. Kengash sessiyalari tegishli hokim, hokim yo'qligida esa uning o'rinbosarlaridan biri tomonidan zaruratga qarab, biroq yiliga kamida ikki marta chaqiriladi. Sessiya, shuningdek, xalq deputatlari tegishli kengashi deputatlari kamida uchdan ikki qismining tashabbusiga binoan ham chaqirilishi mumkin. Kengash sessiyasini chaqirish to'g'risidagi qarordan deputatlar sessiya ochilishidan kamida 7 kun oldin xabardor qilinadi.

Yangi saylangan xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashining birinchi sessiyasi hokim tomonidan saylovdan keyin kechi bilan uch haftalik muddat ichida chaqiriladi va u keksa deputatlardan biri tomonidan ochiladi.

Xalq deputatlari Kengashining ish olib borish tartibi sessiyada belgilanadi. Sessiyaga hokim, u yo'qligida esa Kengashning qaroriga yoki hokimning topshirig'iga binoan mazkur Kengashning deputatlaridan biri raislik qiladi. Sessiyaning ish hujjatlarini rasmiylashtirish uchun deputatlar orasidan sessiya kotibi yoki kotibiyati saylanadi.

Xalq deputatlari Kengashining sessiyasi, basharti unda jami deputatlarning kamida uchdan ikki qismi ishtirok etsa, vakolatli hisoblanadi.

Xalq deputatlari Kengashi sessiyasida muhokama qilinayotgan masalalar bo'yicha ochiq yoki yashirin ovoz berish orkali, deputatlar umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan qaror qabul qilinadi. Sessiya qarori hokim tomonidan imzolanadi. Qaror e'lon qilinishi bilan qonuniy kuchga kirgan hisoblanadi.

Sessiya Kengash faoliyatining asosiy tashkiliy-huquqiy shakli, deputatlarning jamoaviy ish faoliyatining bosh shakli hisoblanadi. Deputatlar faol ishtiroki ta'minlanganda, ko'rilayotgan hamma masalalar muhokamasi qizg'in amalga oshganda, deputatlarning

tashabbuskorligi yuqori darajada bo'lganda sessiyalar to'laqonli bo'ladi.

Xalq deputatlari Kengashlarining birinchi sessiyasi tashkiliy xarakterga ega bo'ladi. Uning kun tartibida mandat komissiyasini saylash, deputatlar vakolati haqida mandat komissiyasining ma'ruzasini eshitish, doimiy komissiyalar tuzish, tegishli idora rahbarlarini tasdiqlash kabi masalalar turadi. Sessiya faoliyati demokratik prinsiplarga to'la javob beradi. U jamoaviy faoliyat olib borish prinsiplariga tayanadi.

Xalq deputatlari Kengashi sessiyalarini chaqirish va o'tkazish, sessiya muhokamasiga masalalar kiritish va ularni qarab chiqish, xalq deputatlari Kengashi organlarini tashkil etish va saylash, ularning faoliyatiga doir hisobotlarni tinglash, deputatlar so'rovlarini, qaror loyihalarini karab chiqish, ovoz berish, qarorlarni e'lon qilish, sessiyaga taklif etiladigan shaxslar sonini aniqlash tartibi, shuningdek deputatlarning mas'uliyati va sessiya ishini tashkil etishga doir boshqa masalalar xalq deputatlari Kengashining ish tartibiga muvofiq belgilanadi. Ish tartibi to'g'risidagi hujjatlar xalq deputatlari Kengashlari tomonidan qabul qilinadi. Ish tartibida sessiyaga taklif qilinadigan shaxslar sonini aniqlash tartibi, deputatlarning mas'uliyati masalalari, shuningdek sessiya ishini tashkil etishga doir boshqa masalalar ham belgilanadi.

Xalq deputatlari Kengashlarida doimiy komissiyalar tuziladi. Doimiy Komissiyalar sessiya muhokamasiga kiritiladigan masalalarni dastlabki tarzda ko'rib chiqadi va tayyorlaydi, tegishli Kengash qarorlarini va qonun hujjatlarini ro'yobga chiqarish uchun ko'maklashadi, vakolatlari doirasida nazorat o'rnatadi. Doimiy komissiyalar Kengash vakolati muddati davomida faoliyat qiladi. Doimiy komissiyalar to'g'risidagi Nizom tegishli xalq deputatlari Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

Doimiy komissiyalar Kengashlarning tashkiliy faoliyati shakllaridan biri hisoblanadi. Doimiy komissiyalar deputatlarni Kengash ishiga doimiy va faol jalb etish vositasi bo'lib, u orqali Kengash ishida doimiylik vujudga keladi. Har bir Kengash o'z ish ko'lamidan kelib chiqib doimiy komissiyalar tizimini tuzadi. Ularning ishida deputatlarning aksariyat ko'pchiligi ishtirok etadi.

Doimiy komissiyalar xalq deputatlari Kengashlari va hokimlar ko'rib chiqish uchun takliflar ishlab chiqadilar; Kengashda ko'riladigan masalalar yuzasidan xulosalar tayyorlaydilar; Kengash va hokim qarorlarini amalga oshirish yuzasidan ishlarni tashkil qiladilar; ularni davlat organlari, korxonalar, tashkilotlar va muassasalar tomonidan ijro etilishini tekshiradilar.

Doimiy komissiyalar, ular a'zolarining soni xalq deputatlari Kengashlari tomonidan belgilanadi. Doimiy komissiya raisi va tarkibi sessiyada saylanib, komissiya majlisida rais o'rinbosari, kotibi saylanadi. Doimiy komissiyalar tarkibiga ijroiya hokimiyati organlari rahbarlari saylanmaydi. Bu doimiy komissiyalarning nazorat faoliyatini samarali bo'lish vositasidir.

Doimiy komissiyalarning umumiy vazifalari bilan birga maxsus vazifalari ham bor. Masalan, mandat komissiyasi deputatlik vakolatini to'g'ri deb topish, muddatidan avval tugatish bo'yicha xulosalar beradi.

Doimiy komissiyalar o'z faoliyatini majlislarida amalga oshiradi. Ayrim masalalarni muhokama qilishda bir necha doimiy komissiyalarning qo'shma majlislari va masalani joyida o'rganish uchun sayyor majlislar ham o'tkazilishi mumkin.

Doimiy komissiyalar o'z ishiga turli mutaxassislarni, ilmiy xodimlarni, tajribaga ega bo'lgan kishilarni jalb qilishi, shuningdek, zarur hollarda ishchi komissiyalari tuzishi mumkin. Doimiy komissiyalar majlislarida ko'riladigan masalalar oddiy ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadi. Doimiy komissiyalarning qarorlari tavsiya

xarakteriga ega bo'lib, davlat organlari, korxonalar, tashkilotlar, muassasalar, mansabdor shaxslar tomonidan albatta ko'rib chiqilishi shart.

Xalq deputatlari Kengashlari tomonidan tuzilishi lozim bo'lgan doimiy komissiyalar tizimiga mandat komissiyasi, qonuniylik va huquqiy tartibot masalalari bo'yicha doimiy komissiya va boshqalar kiradi.

Xalq deputatlari Kengashlari tomonidan zarur hollarda ma'lum vazifani bajarish va aniq maqsadlar uchun muvaqqat komissiyalar ham tuziladi. Muvaqqat komissiyalar tarkibiga boshqa Kengash deputatlari yoki deputat bo'lmagan shaxslar, mutaxassislar ham kirishi mumkin. Bu komissiyalar ma'lum vazifani bajarib bo'lgach, o'z faoliyatini to'xtatadi.

Mahalliy vakillik organlarining faoliyati samarali bo'lishi uchun ularga tashkiliy, texnikaviy va boshqa jihatlardan xizmat ko'rsatish zarur. Bu xizmat tegishli hokimlik apparati tomonidan amalga oshiriladi. Hokim kotibiyati Kengashning ijtimoiy, moddiy-texnik va axborot vositalari bilan ta'minlanish choralari ko'radi. Kotibiyat sessiyalarga, doimiy komissiyalarning majlislariga tayyorgarlik ishlariga rahbarlik qiladi, qabul qilinadigan qarorlar loyihalarining ekspertizasini tashkil qiladi, deputatlarga uslubiy va huquqiy yordam ko'rsatishni uyushtiradi va hokazo.

Mahalliy ijroiya hokimiyatiga viloyat, tuman va shahar hokimlari boshchilik qiladi. Hokimning ish faoliyati yakkaboshchilik prinsipi asosida olib boriladi¹. Hokim faoliyatini amalga oshirishda uning sohalar bo'yicha o'rinbosarlari yordam beradi. Hokim o'rinbosarlari tarkibi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Hokim o'rinbosarlari, qoida tariqasida, tegishli xalq deputatlari Kengashining deputatlari orasidan tayinlanadi va tasdiqlanadi.

Viloyatlar va Toshkent shahar hokimining o'rinbosarlari hokim tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti bilan kelishilgan holda lavozimiga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi, bu xususda qabul qilingan qaror tegishli xalq deputatlari Kengashlarida tasdiqlanadi.

Tuman va shahar hokimining o'rinbosarlari tegishli hokim tomonidan yuqori turuvchi hokim bilan kelishilgan holda lavozimiga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi, hamda tuman va shahar deputatlari Kengashlarida tasdiqlanadi.

Shahardagi tuman, tumanga bo'ysunuvchi shahar hokimining o'rinbosarlari tegishli hokim tomonidan yuqori turuvchi hokim bilan kelishilgan holda lavozimiga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi.

Hokim o'rinbosarlari hokim tomonidan belgilangan vazifalar taqsimotiga muvofiq ish faoliyati yuritadilar.

Hokim yakkaboshlik asosida ish faoliyati yuritisa ham, masalalarni har tomonlama, ochiq-oshkora ko'rib muhokama qilish uchun uning qoshida maslahat kengashi tuziladi. Maslahat kengashida qarorlar qabul qiladi, bunda hokimning fikri hal qiluvchi hisoblanadi.

Mahalliy ijroiya hokimiyati organlari-hokimliklar boshqarmalar, bo'limlar va boshqa bo'linmalardan iborat bo'lib, ularning strukturasi, tashkil etish tartibi va faoliyati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan tegishli nizomlar bilan belgilanadi.

Viloyatlar va Toshkent shahar ijroiya hokimiyati organlarining strukturasi va shtatlari hokim tomonidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bilan kelishilgan holda tegishli xalq deputatlari Kengashi tasdiqlagan byudjet doirasida belgilanadi va o'zgartiriladi.

Tuman va shahar ijroiya hokimiyati organlarining strukturasi va shtatlari hokim tomonidan yuqori turuvchi hokim bilan kelishilgan

holda tegishli xalq deputatlari Kengashi tasdiqlagan byudjet doirasida belgilanadi va o'zgartiriladi¹.

Mahalliy ijroiya hokimiyati struktura bo'linmalarining rahbarlari davlat boshqaruvining yuqori organlari bilan kelishilgan holda tegishli hokimning takdimiga binoan xalq deputatlari Kengashi tomonidan, sessiyalar orlig'idagi davrda esa-hokim tomonidan lavozimiga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi².

Mahalliy davlat hokimiyati organlari o'z vakolatlari doirasida qarorlar shaklida normativ hujjatlar qabul qiladi. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining normativ-huquqiy hujjatlari Konstitutsiya va qonunlar, Oliy Majlis, Prezident, Vazirlar Mahkamasining, shuningdek yuqori turuvchi mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari asosida va ularni ijro etish uchun qabul qilinadi³.

Viloyat, tuman, shahar Kengashlari qarorlar qabul qiladi, hokimlar esa qarorlar qabul qiladi va farmoyishlar chiqaradi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga asosan hokim o'z vakolatlari doirasida tegishli hududsa barcha korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, birlashmalar, shuningdek mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan qarorlar qabul qiladi². Ushbu konstitutsiyaviy norma hokimlar qarorlarining yuridik kuchi, tabiatini belgilab beradi.

«Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi Qonunning 6-moddasida xalq deputatlari Kengashlari va hokimlar tomonidan qabul qilinadigan huquqiy hujjatlar aniq belgilangan bo'lib, hokimlar quyidagi masalalar yuzasidan qaror qabul qilish huquqiga ega:

- hududni rivojlantirishning istiqbol yo'nalishlari masalasida;

¹ Qarang: «Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida»gi Qonun. /O'zbekistonning yangi qonunlari. 25-son. -T.: «Adolat», 2004, 40-41-6.

² Qarang: O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -T.: O'zbekiston», 2014, 29-6.

³ Qarang: Husanov O. O'zbekiston Respublikasining mahalliy davlat hokimiyati to'g'risidagi Qonuni. -T.: «Adolat». 1995,24-2b-betlar.

- hudud byudjeti va tarmoq komissiyalari moliyaviy ahvolni mustahkamlash borasida;
- birjalar va sug'urta kompaniyalarini rivojlantirish, aholini ijtimoiy himoya qilish, ish bilan bandligini ta'minlash, umumiy ta'lim va madaniyat darajasini oshirish sohasida;
- mulkni xususiylashtirish kabilarda.

Hokimlar tarmoq komplekslarining faoliyatini muvofiqlashtirish, shuningdek o'z vakolat doirasiga kirgan masalalar yuzasidan qabul qilingan qarorlarni bajarish, kadrlar masalasini hal qilish maqsadida ichki ish tartiblarini belgilovchi turli qoidalarni tasdiqlash uchun farmoyish qabul qiladi.

Hokim xalq deputatlari qabul qilgan qarorlarni imzolamay, qayta muhokamaga qaytarishga haqli. Bunday hollarda qaror ikki haftalik muddatda qayta ko'rib chiqiladi. Qaror qayta ko'rilayotgan paytda, deputatlarning uchdan ikki qismi ovozi bilan avvalgi holda ma'qullansa, unda qaror o'z kuchini saqlab qoladi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlarining huquqiy hujjatlari amaldagi qonunchilikka zid bo'lmasligi lozim. Aks holda bu hujjatlar yuqori turuvchi davlat organi tomonidan bekor qilinadi.

Mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari (xalq deputatlari Kengashlari)ning qarorlari Konstitutsiya, qonunlar, Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlariga zid bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan bekor qilinadi.

Xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlarining qarorlari viloyat Kengashi tomonidan bekor qilinadi.

Hokimlarning qarorlari Konstitutsiya, qonunlar, Prezidentning farmon va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasi hujjatlariga yoki respublika manfaatlariga zid bo'lsa, Prezident yoki Vazirlar Mahkamasi tomonidan to'xtatiladi va bekor qilinadi.

Hokimlarning qarorlari tegishli xalq deputatlari Kengashlari va yuqori turuvchi hokimlar tomonidan bekor qilinadi. Hokim tomonidan qabul qilingan hujjatlar ustidan fuqarolar, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar sudga shikoyat qilishlari mumkin². Shuningdek, hokimning qabul qilgan hujjatlariga prokuror tomonidan protest bildirilishi mumkin. Bunday hollarda protest bildirilgan qarorlar hokimning o'zi tomonidan yoki yuqori turuvchi hokim yoki Vazirlar Mahkamasi, zaruratga qarab esa Prezident tomonidan qayta ko'rib chiqiladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mahalliy davlat hokimiyati organlarining konstitutsiyaviy asoslari o'z ifodasini topgan bo'lib, ular quydagi moddalarda aks ettirilgan.

99-modda. Viloyatlar, tumanlar va shaharlarda (tumanga bo'ysunadigan shaharlardan, shuningdek, shahar tarkibiga kiruvchi tumanlardan tashqari) hokimlar boshchilik qiladigan xalq deputatlari kengashlari hokimiyatning vakillik organlari bo'lib, ular davlat va fuqarolarning manfaatlarini ko'zlab, o'z vakolatlariga taalluqli masalalarni hal etadilar.

100-modda. Mahalliy hokimiyat organlari ixtiyoriga quyidagilar kiradi:

qonuniylikni, huquqiy-tartibotni va fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash;

hududlarni iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlantirish;

mahalliy byudjetni shakllantirish va uni ijro etish, mahalliy soliklar, yig'implarni belgilash, byudjetdan tashqari jamg'armalarni hosil qilish;

mahalliy kommunal xo'jalikka rahbarlik qilish;

atrof-muhitni muhofaza qilish;

fuqarolik holati aktlarini qayd etishni ta'minlash;

normativ hujjatlarni qabul qilish hamda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga va O'zbekiston Respublikasi qonunlariga zid kelmaydigan boshqa vakolatlarni amalga oshirish.

101-modda. Mahalliy hokimiyat organlari O'zbekiston Respublikasining Qonunlarini, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlarini, davlat hokimiyati yuqori organlarining qarorlarini amalga oshiradilar, respublika va mahalliy ahamiyatga molik masalalarni muhokama qilishda qatnashadilar.

Yuqori organlarning o'zlariga berilgan vakolat doirasida qabul qilgan qarorlari quyi organlar ijro etishi uchun majburiydir. Xalq deputatlari kengashlari va hokimlarning vakolat muddati - 5 yil.

102-modda. Vakillik va ijroiya hokimiyatini tegishliligiga qarab viloyat, tuman va shahar hokimlari boshqaradi. Viloyat va Toshkent shahar hokimi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qonunga muvofiq tayinlanadi hamda lavozimidan ozod etiladi. Tuman va shaharlarning hokimlari tegishli viloyat hokimi tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi hamda tegishli xalq deputatlari kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

Shaharlardagi tumanlarning hokimlari tegishli shahar hokimi tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi hamda xalq deputatlari shahar kengashi tomonidan tasdiqlanadi. Tumanlarga bo'ysunadigan shaharlarning hokimlari tuman hokimi tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi hamda xalq deputatlari tuman kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

103-modda. Viloyat, tuman va shahar hokimlari o'z vakolatlarini yakkaboshchilik asoslarida amalga oshiradilar va o'zlari rahbarlik qilayotgan organlarning qarorlari va faoliyati uchun shaxsan javobgardirlar. Hokimlarning va xalq deputatlari mahalliy kengashlarining faoliyatini tashkil qilish, ularning vakolat doirasini va

xalq deputatlari mahalliy kengashlarini saylash tartibi qonun bilan belgilanadi.

104-modda. Hokim o'ziga berilgan vakolatlar doirasida tegishli hududdagi barcha korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, birlashmalar, shuningdek, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan qarorlar qabul qiladi.

105-modda. Shaharcha, qishloq va ovullarda, shuningdek, ular tarkibidagi mahallalarda hamda shaharlardagi mahallalarda fuqarolarning yig'inlari o'zini o'zi boshqarish organlari bo'lib, ular ikki yarim yil muddatga raisni (oqsoqolni) va uning maslahatchilarini saylaydi.

O'zini o'zi boshqarish organlarini saylash tartibi, faoliyatini tashkil etish hamda vakolat doirasi qonun bilan belgilanadi.

109-modsa. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi:

- 1) O'zbekiston Respublikasi Qonunlarining va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qarorlarining, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlarining, hukumatning va mahalliy davlat hokimiyati organlari qarorlarining, O'zbekiston Respublikasining davlatlararo shartnomaviy va boshqa majburiyatlari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga mosligini aniqlaydi;
- 2) Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga, Qoraqalpog'iston Respublikasi qonunlari O'zbekiston Respublikasining qonunlariga muvofiqligi to'g'risida xulosa beradi;
- 3) O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari normalariga sharh beradi;
- 4) O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari bilan berilgan vakolat doirasida boshqa ishlarni ham ko'rib chiqadi.

Konstitutsiyaviy sudning qarorlari matbuotda e'lon qilingan paytdan boshlab kuchga kiradi. Ular qat'iy va ular ustidan shikoyat qilish mumkin emas.

Konstitutsiyaviy sudni tashkil etish va uning faoliyat ko'rsatish tartibi qonun bilan belgilanadi.

117-modd. O'zbekiston Respublikasining fuqarolari davlat hokimiyati vakillik organlariga saylash va saylanish huquqiga egadirlar. Har bir saylovchi bir ovozga ega. Ovoz berish huquqi, o'z xohish irodasini bildirish tengligi va erkinligi qonun bilan kafolatlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Krnunchilik palatasiga hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesiga, viloyatlar, tumanlar, shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlariga saylov tegishincha ularning konstitutsiyaviy vakolat muddati tugaydigan yilda - dekabr oyi uchinchi o'n kunligining birinchi yakshanbasida o'tkaziladi. Saylovlar umumiy, teng va to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan o'tkaziladi. O'zbekiston Respublikasining o'n sakkiz yoshga to'lgan fuqarolari saylash huquqiga egadirlar.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati a'zolari Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlarining tegishli qo'shma majlislarida mazkur deputatlar saylanganidan so'ng bir oy ichida ular orasidan yashirin ovoz berish yo'li bilan saylanadilar.

FUQAROLARNING O'ZINI O'ZI BOSHQARISH ORGANLARINING HUQUQIY ASOSLARI

O'zbekiston Respublikasi o'z taraqqiyot yo'lining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarini belgilab oldi. Davlat boshqa barcha institutlar singari jamoat birlashmalari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining huquqlari hamda manfaatlarini muhofaza etadi, bu organlarga ijtimoiy turmushda ishtirok etish uchun teng huquq va erkinliklar yaratib beradi.

Dunyoning aksariyat rivojlangan mamlakatlarida mahalliy doirada barcha ishlar saylov asosida shakllantiriladigan yoxud mahalliy boshqaruv organi sifatida markazdan maxsus tayinlanadigan mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Yevropa Kengashi tomonidan 1985-yil 15-oktabrda «Mahalliy o'zini o'zi boshqarish to'grisidagi Yevropa Xartiyasi» tasdiqlangan. Xartiyada qayd etilganidek, mahalliy o'zini o'zi boshqarish - jamoat ishlarining muayyan kismini qonun doirasida va o'z mas'uliyati ostida hamda aholi manfaatlarini yo'lida boshqarish, nazorat qilish borasida mahalliy jamiyatlarning huquq va layokati demakdir¹.

Mahalliy o'zini o'zi boshqarish to'grisidagi Yevropa Xartiyasi mahalliy o'zini o'zi boshqarish uchun birlamchi huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi. Xartiya Yevropa Kengashiga a'zo davlatlarning mahalliy o'zini o'zi boshqarishga doir hujjatlarida o'z aksini topmoqda².

O'zbekistonda ham o'zbek davlatchiligi rivojining tarixiy tajribasiga tayangan holda mahalliy o'zini o'zi boshqarish tizimi shakllanmoqda.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning hozirgi bosqichida siyosiy jabhadagi yangilanishlarning asosiy yo'nalishi

¹ Qarang: O.Ye.Kutafin, V.I.Fadeev. Munitsipalnoe pravo Rossiyskoy Federatsii. -M.: «Yurist», 2001,414-s.

² O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -T.: «O'zbekiston», 2003, Z-b.

ijtimoiy hayotning barcha sohalarini demokratlashtirishga qaratilgandir. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek: «Birinchi navbatda, bozor islohotlarini amalga oshirish, tadbirkorlikni rag'batlantirish, xususiy mulkni rivojlantirish, aholini ish bilan ta'minlash, iste'mol bozorini to'ldirish, ijtimoiy infrastrukturani rivojlantirish, odamlarning moddiy farovonligini oshirish va aholini kuchli ijtimoiy muhofaza qilish masalalari hokimiyat idoralari hamda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan hal etilishi kerak; Ayni shu yo'l bilan biz fuqarolik jamiyatining mustahkam asoslarini barpo etishimiz mumkin».

O'zbekistonda «Kuchli davlatdan-kuchli fuqarolik jamiyati sari» siyosiy qurilish dasturining bosh yo'nalishlaridan biri davlatning bir qancha vakolatlarini mahalliy hokimiyat organlariga, jamoat tuzilmalariga va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich topshirishdan iboratdir. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishi ilk bor konstitutsiyaviy tuzumning asosi sifatida mustahkamlandi va ularni saylash tartibi, faoliyatini tashkil etish hamda vakolat doirasi qonun bilan belgilandi. Birinchi marta konstitutsiya darajasida mahalliy ahamiyatga molik masalalarni hal qilish borasidagi mustaqil faoliyat huquqiy jihatdan mustahkamlandi.

Shunday qilib, O'zbekiston Respublikasi ma'muriy-hududiy bo'linishining eng quyi pog'onasida davlat organlari o'rniga fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tashkil qilindi. Shuningdek, shaharlardagi mahalla va mavzelarda ham fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tuzildi. Bu organlar zimmasiga avval davlat organlari amalga oshirib kelgan ko'pgina vazifalar yuklatildi.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishi organlarini shakllantirishda, bu organlar faoliyatini tartibga solishda huquqiy asoslar o'rnatildi. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining huquqiy asoslariga

quyidagi normativ-huquqiy hujjatlar kiradi:

- O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi;
- fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risidagi qonunlar;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va farmoyishlari;
- Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari;
- fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining nizomlari;
- boshqa normativ-huquqiy hujjatlar.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga asosan davlat xokimiyati organlari bilan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish orgachlari asosli ravishda ajratildi. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishi organlarini saylash tartibi, faoliyatini tashkil etish, ularning vazifasi, vakolatlari qonun bilan belgilab qo'yildi. Keyinchalik bu konstitutsiyaviy prinsiplar yanada rivojlantirildi.

1993-yil 2-sentabrda «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi Qonun qabul qilindi. Ushbu qonun bu organlar faoliyatiga bag'ishlangan ilk normativ-huquqiy hujjat bo'lib, unda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining vazifasi, vakolatlari, fuqarolar yig'ini va rais (oqsoqol)ning vakolatlari, ularning davlat hokimiyati organlari bilan munosabat asoslari belgilab berildi.

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida alohida modda (78-modda) mavjud bo'lib, unda «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari yuridik shaxs sifatida fuqarolik-huquqiy munosabatlarning qatnashchilaridir», deb qayd etilgan.

«Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida»gi, «Ma'muriy javobgarlik to'g'risida»gi, «Uy-joy mulkdorlarining shirkatlari to'g'risida»gi, «Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi, «Fuqarolarning murojaatlari to'g'risida»gi Qonunlarda ham fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari haqidagi qoidalar

mavjud¹.

O'zbekistonda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish tizimini shakllanishi va rivojlanishiga jiddiy e'tibor qaratib kelinmoqda. Xususan. 1999-yil 14-aprelda «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi Qonunning yangi tahriri tasdiqlandi va bu yangi tahrirdagi qonunga ham qo'shimchalar kiritildi.

Mazkur qonunga kiritilgan muhim o'zgarishlardan biri-fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari maqomining yanada aniqlashtirilganidir. Qonunning 7-moddasi Konstitutsiyaniig 105-moddasiga moslashtirildi va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tushunchasi quyidagicha aniqlashtirildi: «Shaharchalar, qishloqlar va ovullar, shuningdek shaharlar, shaharchalar, qishloqlar va ovullardagi mahallalar fuqarolarining yig'inlari (bundan buyon matnda fuqarolar yig'ini deb yuritiladi) fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlaridir». 7-moddaning ikkinchi qismida «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari mahalliy davlat hokimiyati organlari tizimiga kirmaydi va qonun bilan berilgan o'z vakolatlarini tegishli hududda amalga oshiradi», deb belgilandi.

Fuqarolar yig'ini o'zining organlariga ega bo'lib ular tarkibiga, fuqarolar yig'ini kengashi, fuqarolar yig'ini faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha komissiyalar, fuqarolar yig'ini taftish komissiyasi, shuningdek ayrim hollarda ma'muriy komissiyalar kiradi.

Endilikda fuqarolar yig'ini fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi maqomiga ega bo'lib, fuqarolar yig'ini kengashi, fuqarolar yig'ini faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha komissiyalar, fuqarolar yig'ini taftish komissiyasi, shuningdek ayrim hollarda ma'muriy komissiyalar fuqarolar yig'ini organlaridir.

Yangi tahrirdagi «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari

¹ O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. Birinchi qism, ~T.; «O'zbekiston», 19;, 37- -38 betlar.

to'g'risida»gi Qonunda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishining organlarini tuzish hamda fuqarolar yig'ini raisining vakolatlari qayta ko'rib chiqildi va qator aniqliklar kiritildi. Jumladan, kichik korxonalar, xalq hunarmandchiligi sexlari, sartareshxonalar, poyafzal ta'mirlash va tikish ustaxonalari va aholiga maishiy xizmat ko'rsatuvchi boshqa korxonalarni tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish to'g'risidagi masalani hal qilish fuqarolar yig'ini kengashi ixtiyoriga berildi.

Shaharcha, qishloq ovul fuqarolar yig'ini va shahardagi mahalla fuqarolar yig'inining vakolatlari yanada kengaytirilib, ular qonun hujjatlari bilan berilgan istalgan masalani o'zi qarab chiqish uchun olish va hal etish huquqiga ega bo'ldilar.

Fuqarolar yig'ini kengashiga ilgari sudlangan, surunkali ichkilikbozlikka hamda maishiy turmush sohasida huquqbuzarliklar sodir etishga moyil bo'lgan shaxslarga tarbiyaviy ta'sir o'tkazish uchun faxriylardan, xotin-qizlar va yoshlar, madaniyat va din vakillaridan iborat komissiyalar tuzish vakolati berildi.

Shuningdek, fuqarolar yig'ini kengashiga fuqarolar uy-joyidan foydalanish xarajatlarini va kommunal xizmatlar uchun to'lovlarni bank muassasalari orqali hisob-kitob qilib, to'liq va o'z vaqtida to'lashlarini kommunal xizmat ko'rsatish korxonalari bilan birgalikda uyushtirishlari va nazorat qilishi, aholi uy-joy kommunal xizmat haqini to'liq to'lashini ta'minlaganligi uchun fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organiga o'tkaziladigan mablag'larni belgilangan tartibda kam ta'minlangan oilalarga uy-joy kommunal xizmatlari haqini to'lashda yordam berishga, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarinig xodimlarini rag'batlantirishga hamda obodonlashtirish ishlarini bajarishga ishlatish huquqi berildi.

Fuqarolar yig'ini raisining (oqsoqolining) vakolatlari ba'zi masalalarda yanada kengaytirildi va aniqliklar kiritildi. Jumladan, fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) o'z hududida jamoat tartibini

ta'minlashni, shu jumladan fuqarolarning kelishi va ketishini hisobga olishni tashkil etishni, o'smirlar va yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish ishida, voyaga yetmaganlarning huquqlarini himoya qilishda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga ko'maklashishni tashkil etishi to'g'risidagi normalar kiritilgan¹.

Shuningdek, fuqarolar yig'ini raisi (oqsokoli) zimmasiga tegishli hududda ro'yxatdan o'tmagan diniy tashkilotlar faoliyat ko'rsatishining, diniy qarashlarni majburiy singdirish hollarining oldini olishga doir ishlarning uyushtirilishi, vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etish bilan bog'liq boshqa masalalarning hal etilishi to'g'risidagi vakolatlar yuklatilgan².

Ayni paytda fuqarolar yig'ini kengashida ham bu masalaga doir tegishli vakolatlar saqlab qolingan.

Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) tomonidan amalga oshiriladigan ayrim fuqarolik holati dalolatnomalarining ro'yxatga olinishi, notarial harakatlarning amalga oshirilishi to'g'risidagi normalar takomillashtirilgan.

(17-modda) fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish maqsadida qonun hujjatlariga muvofiq fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish ishlari bo'yicha respublika kengashi, shuningdek Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar muvofiqlashtirish kengashlari tuzildi.

Qonunning 17-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Oqsoqollar Kengashi tashkil etildi. 1999-yil 6-noyabrda O'zbekiston Oqsoqollar Kengashining ta'sis qurultoyida uning Nizomi tasdiqlandi.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari - mahallalar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi O'zbekiston Oqsoqollar Kengashi yangi tahrirdagi «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi

¹ Qarang: Ushajoyda. 122-6.

² Qarang: «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risidaigi Qonun. /O'zbekistonning yangi qonunlari. 21-son. -T.: «Adolat», 1999, 124-6.

Qonunning 17-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Oqsoqollari Kengashi ta'sis qurultoyi qarori asosida ixtiyoriy ravishda tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Oqsoqollar Kengashi fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari - mahallalar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi, ularning huquqi, istak va ehtiyojlarini himoya qiluvchi, O'zbekiston Respublikasi hududida jamoatchilik birlashmasi shaklida faoliyat ko'rsatuvchi, mustaqil, o'zini o'zi boshqaruvchi, yuridik shaxs maqomiga, banklarda o'z hisob raqamiga, muhriga, tamg'asiga, ramziy belgilariga, o'z mulki va mustaqil balansiga ega bo'lgan nodavlat notijorat tashkiloti hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Oqsoqollar Kengashining asosiy faoliyat yo'nalishi fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini har tomonlama muvofiqlashtirish va bu sohada Oqsoqollar Kengashi va Respublika «Mahalla» jamg'armasining faoliyat birligini ta'minlash, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining huquq va vakolatlarini zamon talablariga moslashtirib borish, ushbu organlarning jamiyatdagi tutgan o'rni, roli va ahamiyatini kuchaytirish, ularning rivojlanish dasturlari va mexanizmlarini yaratishga uslubiy yordamlashish va bu sohalarda davlat hamda vakillik organlari, xorijiy tashkilotlar, boshqa korxonalar, Respublika jamoatchilik tashkilotlari bilan hamkorlik qilishdan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasi Oqsaqollar Kengashining asosiy maqsadi va vazifalari quyidagilardan iborat:

- fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga, shu jumladan, mahallalarga o'z manfaatlaridan, shuningdek, milliy va ma'naviy qadriyatlardan, urf-odat va an'analardan kelib chiqqan holda, mahalliy ahamiyatga molik barcha masalalarni, moliyaviy-xo'jalik faoliyatini hal qilishlarida tashkiliy ko'maklashish va faoliyatlarini har tomonlama muvofiqlashtirish, ularning huquq, talab va istaklarini muhofaza qilish;
- tarixan tarkib topgan milliy, umumbashariy, ma'naviy, ma'rifiy, diniy

qadriyatlarni, o'zbek xalqining eng yaxshi udumlarini va an'analarini e'zozlash, ommalashtirish, hamjihatlik, milliy g'urur qadriyatlarini xalq ommasiga, xorijiy mamlakatlarga keng targ'ib qilishning tashkiliy - uslubiy ko'rsatmalarini yaratish va tarqatish, bu sohada rivojlangan mamlakatlarda qo'llanilayotgan ilg'or tajribani o'rganish va undan foydalanish;

fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining-mahallalarning rahbarlik lavozimlariga nomzodlarni tayyorlash va tanlash uslublarini yaratish, ularga qo'yiladigan talab me'yorlarini ishlab chiqish va ularning saylovlarini o'tkazish qoida-tartiblarini zamon talablariga moslashtirish;

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligini mustahkamlash, demokratiya tamoyillariga asoslangan kuchli huquqiy davlat, dunyoviy fuqarolik jamiyatini qurishga mo'ljallangan barcha islohiy jarayonlarda faol ishtirok etish, fuqarolarning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, siyosiy, ijtimoiy faolligini oshirish, huquqiy madaniyatini shakllantirish va yuksaltirish chora-tadbirlarini yaratish va amalga oshirish;

- mahalla fuqarolar yig'ini raisi rahbarligida mahalla guzari va markazlarida ma'naviyat va ma'rifat kengashini tuzish, ma'naviyat va ma'rifatxonalarini tashkil etish; qiroat xonalarini tashkil etish, mahallani namunali tarbiya maskaniga aylantirishga erishish;

ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, diniy aqidaparastlikning oldini olish, «Mahalla posbonlari», «Yarashtirish komissiyasi», militsiya vakili va masjid imomlarining Oqsoqollar Kengashi safida jipslashib, hamjihat, bamaslahat ish yuritishlariga erishish;

- davlat organlari vakolatlarini fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga boqichma-bosqich o'tkazish jarayonida faol qatnashish va bu vakolatlarning amalga oshirilishi uchun zarur uslubiy hujjatlar ishlab chiqish;

- xalqaro nodavlat notijorat tashkilotlarga a'zo bo'lish, ular bilan

to'g'ridan-to'g'ri munosabatlar o'rnatish, o'zaro manfaatli hamkorlik haqida tegishli kelishuv hujjatlarini tuzish; xorijiy mamlakatlarda o'tkaziladigan xalqaro anjumanlarda qatnashish; O'zbekistonda xalqaro anjumanlar, seminarlar o'tkazishda tashabbuskorlik qilish, anjumanlarga chet ellik vakillarni taklif qilish;

- O'zbekiston Respublikasi nodavlat notijorat tashkilotlari — «Kamolot» jamg'armasi, Respublika xotin-qizlar qo'mitasi, «Nuroniylar» jamg'armasi va boshqa manfaatdor tashkilotlar bilan aloqalar o'rnatish, hamkorlik qilish, kuchlarni birlashtirish va faoliyatlarini muvofiqlashtirish masalalarida faollik qilish;

- o'z nomidan moliyaviy-xo'jalik shartnomalar tuzish, mulkiy huquqqa ega bo'lish, o'z ommaviy axborot, noshirlik vositalarini ta'sis etish;

- Kengash, «Mahalla» jamg'armasi, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari-mahallalar dasturiy maqsadlaridan kelib chiqqan holda ko'rik-tanlovlar o'tkazish, mukofotlar belgilash;

- o'zini o'zi boshqarish organlari-mahalla fuqarolar yig'ini faoliyati uchun zarur shart-sharoit yaratib berishga erishish;

- O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid bo'lmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanish.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari-mahallalar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi organlar quyidagilardan iborat bo'ladi:

- O'zbekiston Oqsoqollar Kengashi, Kengashning raisi, a'zolari, rayosat a'zolari, rais muovirlari va boshqa rahbar xodimlar, nazorat va taftish komissiyasi raisi va a'zolari;

- fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari — mahallalar ishlari bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar muvofiqlashtirish Oqsoqollar Kengashlari, viloyat, tuman (shahar) muvofiqlashtirish oqsoqollar Kengashlarining raislari, a'zolari, rayosat a'zolari, rais o'rinbosarlari va boshqa rahbar xodimlar, nazorat va taftish komissiyasi raisi va a'zolari;

- Kengashlarning eng yuqori organi bo'lib O'zbekiston Oqsoqollar Kengashining Qurultoyi, eng quyi organi - tuman (shahar) Oqsoqollar Kengashining yig'ini hisoblanadi. Oqsoqollar Kengashining quyi organlari, belgilangan tartibda Kengashning yuqori organlariga o'z faoliyatlari bo'yicha hisobot beradilar.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining huquqiy asoslarini shakllantirish va takomillashtirish faqat Qonunlar bilan kifoyalanib qolmasdan bu sohada Prezidentning o'ndan ortiq farmoni, Vazirlar Mahkamasining o'nga yaqin qarori, o'ndan ortiq namunaviy nizom, bir qator dasturlar, yo'riqnomalar va uslubiy ko'rsatmalar ishlab chiqildi va amaliyotga tatbiq etilmoqda.

Hozirgi kunda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini takomillashtirishga qaratilgan boshqa normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish davom etmoqda. Xususan, «Fuqarolar yig'ini to'g'risida» namunaviy Nizom, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining ma'muriy va taftish komissiyalarining namunaviy Nizomlari ustida ish olib borilmoqda. Bu hujjatlarning qabul qilinishi fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari huquqiy asoslarini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, O'zbekiston Respublikasida hozirgi kunda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining huquqiy demokratik davlat qurish va fuqarolik jamiyatini shakllantirishdagi rolini, o'rnini belgilab beruvchi huquqiy asos yaratilgan. Endilikda bu qonunchilikni hozirgi kun talablaridan kelib chiqqan holda takomillashtirish zarur.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining tuzilish tartibi va vakolatlari

Fuqarolik jamiyatini qurishning asosiy mezonlaridan biri fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini faollashtirishdir. Fuqarolik jamiyatini qurish, albatta, kuchli davlatdan-kuchli jamiyat sari

bosqichma-bosqich o'tish orqali ro'y beradi. Bunda davlat tashqi siyosat, mudofaa, davlat va fuqarolar xavfsizligini ta'minlash, moliya va soliq tizimini shakllantirish, qonunlar qabul qilish kabi umummilliy vazifalarni amalga oshirsa, boshqa vazifalarni bajarish vakolatlari Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, «...markazdan joylarga, jamoat tashkilotlariga hamda asta-sekin fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari zimmasiga yuklatish lozim»¹.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 105-moddasida «Shaharda, qishloq va ovullarda, shuningdek ular tarkibidagi mahallalarda fuqarolar yig'inlari o'zini o'zi boshqarish organlari bo'lib, ular ikki yarim yil muddatga raisni (oqsoqolni) saylaydi», deb belgilab qo'yilgan.

Birinchi chaqiriq Oliy Majlisning XIV sessiyasida yangi tahrirdagi «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi Qonun (1999-yil 14-aprel) qabul qilindi. Ushbu qonunning 7-moddasida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari davlat hokimiyati organlari tarkibiga kirmaydi, deb belgilandi.

Ushbu norma bu organlar faoliyatida tub burilish yasab, endilikda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari o'z faoliyatini amalga oshirishda mustaqildirlar.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining asosiy vazifasi fuqarolarni mahalliy ahamiyatga molik masalalarni hal qilishda mustaqil ravishda faoliyat ko'rishni ta'minlashdir.

Fuqarolar o'zini o'zi boshqarishiga doir o'z konstitutsiyaviy huquqlarini fuqarolar yig'inlari (vakillar yig'ilishi) orqali amalga oshiradilar.

Shaharchalar, qishloqlar va ovullar, shuningdek, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar va ovullardagi mahallalar fuqarolarining

¹ Karimov I.A. O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tanoyillari. -T.: «O'zbekiston», 1995, 16-6.

yig'inlari fuqarolarining o'zini o'zi boshqarish organlaridir.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risidagi qonunning 7-moddasida fuqarolar yig'ini organlari ko'rsatilgan bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

- 1) fuqarolar yig'ini kengashi;
 - 2) fuqarolar yig'ini faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha komissiyalar;
 - 3) fuqarolar yig'ini taftish hamda ma'muriy komissiyalari.
- Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari yuridik shaxs huquqlaridan foydalanadi, belgilangan namunadagi muhrga ega bo'ladi va mahalliy davlat hokimiyati organlarida ro'yxatga olinadi.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi-fuqarolar yig'ini aholi manfaatlarini ifodalash, uning nomidan tegishli hududda amal qiladigan qarorlar qabul qilish huquqiga ega. Fuqarolar yig'inida tegishli hududda doimiy yashayotgan, voyaga yetgan shaxslar qatnashadilar.

Fuqarolar yig'ini fuqarolar yig'inining raisi (oqsoqoli), yig'in kengashi tomonidan zaruratga qarab, lekin yilning har choragida kamida bir marta chaqiriladi. Fuqarolar yig'ini xalq deputatlari tuman, shahar Kengashining, tuman, shahar hokimining yoki 18 yoshga to'lgan va mazkur hududda yashovchi fuqarolarning kamida uchdan bir qismi tashabbusi bilan chaqirilishi mumkin.

Fuqarolarning yig'ini fuqarolar yig'inida qatnashish huquqiga ega bo'lgan barcha aholining yarmidan ko'prog'i hozir bo'lgan taqdirda vakolatli hisoblanadi.

Fuqarolar yig'inini olib borish uchun rayosat saylanadi. Yig'inni fuqarolar yig'inining raisi (oqsoqoli) yoki raisning maslahatchilaridan biri olib boradi. Barcha masalalar bo'yicha qarorlar ochiq yoki yopiq ovoz berish orqali oddiy ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadi.

Har bir yig'inda yig'in o'tkazilgan sana, hozir bo'lgan fuqarolar

soni, kun tartibi va kabul qilingan qarorlar ko'rsatilgan holda bayonnoma yuritiladi. Fuqarolar yig'inining bayonnomasi va qarorini fuqarolar yig'inining raisi (oqsoqoli) va mas'ul kotibi imzolaydi. Rais (oqsoqol) yo'qligida, fuqarolar yig'inining bayonnomasini raisning maslahatchilaridan biri va mas'ul kotib imzolaydi.

Fuqarolar yig'inini chaqirishning imkoni bo'lmagan taqdirda, fuqarolar vakillarining yig'ilishi o'tkaziladi. Yig'ilishga hovlilar, uylar, ko'chalar, mahallalar, mavzalar, dahalardan fuqarolarning namoyandalari vakil qilinadilar. Vakillik normasini fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish ishlari bo'yicha tegishli tumanlar va shaharlar muvofiqlashtirish kengashi belgilaydi.

Fuqarolar vakillarining yig'ilishi unda vakillarning kamida uchdan ikki qismi hozir bo'lgan taqdirda vakolatli hisoblanadi.

Fuqarolar yig'inida mazkur hududda joylashgan korxona, muassasa va tashkilotlarning vakillari o'z faoliyatlariga doir masalalar bo'yicha maslahat ovozi bilan ishtirok etishga haqlidir.

Fuqarolar yig'ini kengashining majlisi fuqarolar yig'inining raisi (oqsoqoli) tomonidan, zaruratga qarab, lekin kamida oyda bir marta o'tkaziladi.

Fuqarolar yig'ini kengashining majlisi, agar uning ishida kengash a'zolarining kamida uchdan ikki qismi qatnashayotgan bo'lsa, vakolatli hisoblanadi. Qaror, agar uni fuqarolar yig'ini kengashining hozir bo'lgan a'zolaridan yarmidan ko'prog'i yoqlab ovoz bergan bo'lsa, qabul qilingan hisoblanadi.

Fuqarolar yig'ini kengashining qarori ochiq ovoz berish yo'li bilan qabul qilinadi. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining faoliyatini tashkil etishni uning kengashi hamda fuqarolar yig'inining raisi (oqsoqoli) amalga oshiradi.

Rais maslahatchilari o'rtasida vazifalarni taqsimlash fuqarolar yig'ini raisining (oqsoqolining) taqdimnomasi bo'yicha yig'in tomonidan

amalga oshiriladi.

Fuqarolar yig'ini kengashi o'z devoniga ega bo'lishi mumkin, uning xodimlari soni yig'in tomonidan belgilanadi. Yig'inning mas'ul kotibi va kengash devoni xodimlari yig'inni, kengash majlisini o'tkazishga doir materiallarni tayyorlaydilar, yig'inning, kengashning va raisning (oqsoqolning) qarorlari ijrochilarga o'z vaqtida yetkazilishini ta'minlaydilar, ish yuritilishini amalga oshiradilar.

Fuqarolar yig'ini kengashi xodimlari fuqarolar yig'inining mablag'lari hisobiga ham, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mahalliy byudjet mablag'lari hisobiga ham ta'minlanishi mumkin.

Taftish komissiyasi fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish uchun tuziladi.

Ma'muriy komissiya ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi o'z vakolatlari doirasidagi ishlarni ko'rib chiqish uchun tuziladi.

Taftish komissiyasi va ma'muriy komissiya o'z faoliyatida mustaqil bo'lib, faqat fuqarolar yig'ini oldida hisob beradi.

Taftish komissiyasi va ma'muriy komissiya o'z faoliyatini fuqarolar yig'ini tomonidan tasdiqlanadigan nizomlar asosida amalga oshiradi.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan qurilgan, olingan yoki qonunda belgilangan tartibda ularga berilgan jamoat, ijtimoiy-maishiy va boshqa maqsaddagi obyektlar, shuningdek transport vositalari, xo'jalik anjomlari va boshqa ko'char hamda ko'chmas mulk ularning mulki hisoblanadi.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari o'z mulki bo'lgan obyektlarni vaqtinchalik yoki doimiy foydalanish uchun yuridik va jismoniy shaxslarga berishga, ijaraga topshirishga, belgilangan tartibda o'z tasarrufidan chiqarishga, shuningdek, qonun hujjatlariga muvofiq ushbu mol-mulk bilan bog'liq boshqa bitimlar tuzish huquqiga ega.

Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatining moliyaviy asosi o'z mablag'laridan, xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlari tomonidan belgilangan tartibda ajratiladigan byudjet mablag'laridan, yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy xayr-ehsonlaridan, shuningdek, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa mablag'lardan tashkil topadi.

Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining moliyaviy mablag'lari bank muassasasidagi mustaqil hisob-varaqda saqlanadi hamda belgilangan tartibda ular tomonidan mustaqil foydalaniladi va mablag'larning olib qo'yilishi mumkin emas. Fuqarolar yig'inining kengashi moliyaviy mablag'lardan foydalanilganligi to'g'risida yilning har choragida fuqarolar yig'ini oldida hisob beradi.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari o'z faoliyatining hisobini yuritadi hamda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mahalliy statistika va soliq organlariga hisobot tavdim etadi.

Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari va ular mansabdor shaxslarining murojaatlari davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar, ularning mansabdor shaxslari tomonidan o'z vakolatlari doirasida qonunda belgilangan muddatda ko'rib chiqilishi shart.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini qayta tashkil etish va ularning faoliyatini tugatish ma'muriy-hududiy birliklar, shuningdek, mahalla qo'shilganda, bo'linganda, tugatilganda fuqarolar yig'inining qaroriga binoan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

«Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi yangi tahrirdagi Qonunning 10,11,12,13-moddalarida ularning vazifalaridan kelib chiqib vakolatlari tasniflangan va alohida-alohida berilgan.

Qonunning 10-moddasiga binoan shaharcha, qishloq, ovul

fuqarolar yig'ini va shahardagi mahalla fuqarolar yig'ini tegishli ravishda shaharcha, qishloq, ovul fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari hamda shahardagi mahalla fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari qonun hujjatlari bilan berilgan istalgan masalani o'zi ko'rib chiqish uchun olish va hal qilish huquqiga ega³.

Bu organlar o'z vakolat doirasida quyidagi ishlarni amalga oshiradilar:

fuqarolar yig'ini raisini (oqsoqolini) va uning maslahatchilarini, fuqarolar yig'ini faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha komissiyalarining raislarini va a'zolarini saylaydi, yilning har choragida ularning hisobotini eshitadi;

- fuqarolar yig'inining taftish komissiyasini hamda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda ma'muriy komissiyani saylaydi, ular to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlaydi;

- belgilangan tartibda raisning (oqsoqolning) maslahatchilari va fuqarolar yig'ini kengashi devonining miqdor tarkibini belgilaydi, raisning (oqsoqolning) taqdimnomasiga ko'ra, fuqarolar yig'inining mas'ul kotibini tayinlaydi;

kengash, taftish komissiyasi va ma'muriy komissiya faoliyatining asosiy yo'nalishlarini belgilaydi, yilning har choragida ularning hisobotlarini eshitadi;

- fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organining faoliyat dasturini va xarajatlar smetasini, hududni kompleks rivojlantirishni ta'minlash, aholi punktlarini obodonlashtirish va ularning sanitariya holatini yaxshilashga qaratilgan tadbirlar rejalarini tasdiqlaydi;

- qonunlar va boshqa qonun hujjatlarining, shuningdek o'z qarorlarining ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi;

³ Qarang: «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi Qonun. //O'zbekistonning yangi qonunlari. 21-son. -T.: «Adolat», 1999, 116-124-6.

- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini o'tkazuvchi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov o'tkazuvchi uchastka saylov komissiyalarining a'zoligiga nomzodlarni tegishli okrug saylov komissiyalariga tavsiya etadi;
- xalq deputatlari tuman, shahar Kengashi deputatligiga nomzod ko'rsatish to'g'risida qaror qabul qiladi;
- to'ylar va boshqa marosimlarni o'tkazish bo'yicha tavsiyalar beradi;
- yilning har choragida tuman, shahar va viloyat hokimliklari rahbarlarining fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyati sohasiga kiruvchi masalalar yuzasidan hisobotlarini eshitadi⁴;
- atrof muhitni muhofaza qilish va obodonlashtirish masalalari yuzasidan o'z vakolati doirasida tegishli hududsa joylashgan korxonalar, muassasalar, tashkilotlar rahbarlarining hisobotlarini eshitadi;
- fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining o'z mablag'larini shakllantiradi, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining mulkiga egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi;
- obodonlashtirish ishlarini o'tkazish, umumiy foydalanishdagi joylarni ta'mirlash, shuningdek, kam ta'minlangan oilalarning uylari va kvartiralarini ta'mirlashda yordam ko'rsatish uchun aholidan ixtiyoriylik asosida mablag' yig'ish to'g'risida qarorlar qabul qiladi;
- obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish va sanitariya-tozalash ishlari o'tkazish uchun tegishli hududda joylashgan korxonalar va tashkilotlarning mablag'laridan shartnoma asosida foydalanish to'g'risida qarorlar qabul qiladi;

⁴ Qarang: «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi Qonun. //O'zbekistonning yangi qonunlari. 21-son. -T.: «Adolat», 1999, 116-124-6.
Fuqarolar yig'inlarining hisobotlar to'g'risidagi bayonnomalari tegishli viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklariga yuboriladi, ular bu bayonnomalarning hisobini yuritadilar, fuqarolarning murojaatlari bajarilishini nazorat qiladilar.

- o'z hududidagi ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish uchun yuridik va jismoniy shaxslarning mablag'larini ixtiyoriylik asosida birlashtirish masalalari yuzasidan qarorlar qabul qiladi;
- pul mablag'lari sarflanishi ustidan nazoratni tashkil etadi;
- atrof muhitni muhofaza qilishga ko'maklashadi;
- guzarlar barpo etishga ko'maklashadi;
- ma'muriy-hududiy birliklar va mahallalarning chegaralarini o'zgartirish, mahallalar, ko'chalar, maydonlar va boshqa obyektlarning nomini o'zgartirish to'g'risida tegishli davlat organlariga takliflar kiritadi;
- yer uchastkalarini berish (realizatsiya qilish) masalalarini ko'rib chiquvchi tuman komissiyasiga o'z vakilini yuboradi;
- uy-joy mulkdorlarining shirkatlariga majburiy to'lovlarni yig'ish, issiqlik va elektr energiyasidan, issiq va sovuq suvdan tejamli foydalanish yuzasidan tadbirlar o'tkazishda, tegishli hududni obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish, uy-joylar va hovlilarni namunali saqlash yuzasidan ixtiyoriy ishlarni tashkil etishda ko'maklashadi;
- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Shahardagi mahalla fuqarolar yig'ini ushbu moddada nazarda tutilgan vakolatlardan tashqari, kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam ko'rsatish va yosh bolali muhtoj oilalarga nafaqalar tayinlash masalalarini hal etadi, oilalarni davlat tomonidan ijtimoiy qo'llab-quvvatlash maqsadlari uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ajratiladigan mablag'lardan o'z o'rnida va samarali foydalanishni ta'minlaydi.

Shaharcha, qishloq, ovul fuqarolar yig'ini shaharcha, qishloq va ovuldagi mahalla fuqarolar yig'inlariga ko'maklashadi, markazlashtirilgan tarzda ajratiladigan mablag'lardan qanday foydalanilayotganligi to'g'risidagi hisobotlarini eshitadi.

Fuqarolar yig'inining qarorlarini bajarish va fuqarolarning o'zini

o'zi boshqarish organlarining yig'inlari oraliq davridagi joriy faoliyatini amalga oshirish uchun fuqarolar yig'inining raisi (oqsoqoli), uning maslahatchilari fuqarolar yig'ini faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha komissiyalarning raislari va yig'inning mas'ul kotibidan iborat tarkibda fuqarolar yig'inining kengashi tuziladi.

Fuqarolar yig'inining kengashi o'z vakolati doirasida quyidagi ishlarni amalga oshiradi:

- fuqarolar yig'inini chaqiradi;
 - fuqarolar yig'ini faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha komissiyalar ishini muvofiqlashtiradi, xayriya tashkilotlari va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlivdagi tadbirlarni o'tkazadi;
 - fuqarolar yig'ini raisining (oqsoqolining) tavdimnomasiga ko'ra fuqarolar yig'ini kengashining devonini shakllantiradi;
 - O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari deputatlariga ularning saylovchilar bilan uchrashuvini uyushtirishda, fuqarolarni qabul qilishda, ular o'z saylov uchastkalarida boshqa vakolatlarini amalga oshirishlarida ko'maklashadi;
- ommaviy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy, madaniy, sport tadbirlarini va boshqa tadbirlarni o'tkazishda mahalliy davlat hokimiyati organlariga ko'maklashadi;
- xotin-qizlarning manfaatlarini himoya qilish, ularning ijtimoiy hayotdagi, oilada ma'naviy-axloqiy muhitni shakllantirishdagi, yosh avlodni tarbiyalash ishidagi mavqeini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ko'radi.
 - ro'yxatdan o'tmagan diniy tashkilotlar faoliyat ko'rsatishining oldini olish, fuqarolarning diniy e'tiqod erkinligi huquqlariga rioya etilishini ta'minlash, diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'ymaslik chora-tadbirlarini ko'radi, vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi bilan bog'liq bo'lgan

boshqa masalalarni ko'rib chiqadi⁵;

- tarbiyaga oid masalalar yuzasidan ta'lim muassasalari bilan hamkorlik qiladi;
- ikki yoshga to'lmagan bolalari bor ishlamaydigan onalarga nafaqalarni shu maqsadda ajratilgan davlat byudjeti mablag'laridan belgilangan tartibda tayinlaydi va to'laydi;
- boshqalarning parvarishi va yordamiga muhtoj keksa fuqarolarga shafelik (patronajlik) yordami shu maqsadda ajratilgan davlat byudjeti mablag'lari hisobidan ko'rsatilishiga ko'maklashadi;
- mazkur hududda yashovchi fuqarolarni ish bilan ta'minlashga, shu jumladan kasanachilikni tashkil etishga ko'maklashadi;
- qonun hujjatlarida belgilangan tartibda kichik korxonalar, sartaroshxonalar, poyabzal ta'mirlash va tikish ustaxonalari, xalq hunarmandchiligi sexlarini va aholiga maishiy xizmat ko'rsatuvchi boshqa korxonalarni tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish to'g'risida qaror qabul qiladi;
- aholining uylarni, hovlilardagi binolarni, hovlilar va uylar atrofidagi hududlarni obodonlashtirish, ko'kalamzorlash-tirish va orasta saqlash, bolalar va sport maydonchalarini jihozlash, yo'llar, ko'priklar, ko'chalar, yo'lkalar, kommunal tarmoqlarni qurish, qayta qurish, ta'mirlash va yaroqli holda saqlash, tarix va madaniyat yodgorliklarini, qabristonlarni ta'mirlash ishlarida ixtiyoriylik asosida qatnashishlarini tashkil etadi, tuman, shahar hokimligi ajratadigan moddiy va boshqa mablag'larni, o'z mablag'larini ana shu maqsadlarda ishlatadi, jamoatchilik yordamini (hasharlarni) uyushtiradi, ko'riklar va tanlovlar o'tkazadi;
- yoqilg'i, elektr va issiqlik energiyasi hamda suvdan tejimli foydalanish va ularning behuda sarflanishini kamaytirishga qaratilgan tadbirlarni o'tkazadi;

⁵ Bu qaror keyinchalik fuqarolar yig'inida tasdiqlanadi.

- dehqon va fermer xo'jaliklarini rivojlantirishga ko'maklashadi;
- tegishli hududdagi yerlarning foydalanilishi va muhofaza etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi;
- savdo va maishiy xizmat ko'rsatish korxonalarining ishi, savdo va fuqarolarga xizmat ko'rsatish madaniyati qoidalariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirishiga ko'maklashadi;
- tegishli hududdagi jamoat tartibini ta'minlashda, shu jumladan fuqarolarning kelishi va ketishini hisobga olishni tashkil etishda, o'smirlar va yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish ishida, voyaga yetmaganlarning huquqlarini himoya qilishda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga ko'maklashadi;
- aholi punktlari, suv ta'minoti manbalari, turar joylar, maktablar va boshqa ta'lim muassasalarining sanitariya va ekologiya holati ustidan nazorat amalga oshirilishiga ko'maklashadi;
- yong'inga qarshi havfsizlik talablariga, jonivorlarni saqlashga oid veterinariya qoidalariga rioya etilishi ustidan nazorat amalga oshirilishiga ko'maklashadi;
- imoratlar qurish hamda hovlilar va uylar atrofidagi hududlarni orasta saqlash qoidalariga rioya etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi;
- uy-joy fondidan foydalanish va uning asralishini ta'minlashda fuqarolarga ko'maklashadi;
- aholidan soliqlar va majburiy to'lovlar o'z vaqtida tushishiga ko'maklashadi;
- fuqarolar uy-joydan foydalanish xarajatlarini va kommunal xizmatlar haqini bank muassasasi orqali hisob-kitob qilib, to'liq va o'z vaqtida to'lashlarini kommunal xizmat ko'rsatish korxonalari bilan birgalikda uyushtiradi va nazorat qiladi. Aholi uy-joy-kommunal xizmatlar haqini to'liq to'lashini ta'minlaganligi uchun fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organiga o'tkaziladigan mablag'larni belgilangan tartibda

kam ta'minlangan oilalarga uy-joy-kommunal xizmatlari haqini to'lashda yordam berishga, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining xodimlarini rag'batlantirishga, shuningdek obodonlashtirish ishlarini o'tkazishga ishlatadi;

- fuqarolarni tabiiy ofatlarga qarshi kurashga va ularning oqibatlarini tugatishga jalb etadi;
- aholini fuqarolik himoyasiga doir tadbirlarni o'tkazishga jalb etadi, harbiy xizmatga majburlar va chaqiriluvchilarni mudofaa ishlari bo'limlariga chaqirilayotganliklaridan xabardor etishni va chaqirishni tashkil qilishga ko'maklashadi, shuningdek shaharchalar, qishloqlar va ovullarda ularning shaxsiy birlamchi hisobini yuritadi;
- fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari huzurida yarashtiruvchi komissiyasi tuzadi;
- «Mahalla posboni» jamoatchilik tuzilmasining rahbarini tayinlaydi va tuzilmaga a'zolar qabul qiladi;
- fuqarolar yig'inining diniy ma'rifiy va ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha maslahatchisini tayinlaydi;
- jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan shaxslarni ijtimoiy-mehnatga tiklash va jinoyatchilikning oldini olishga doir tadbirlarni ijtimoiy moslashuv markazlari bilan birgalikda amalga oshiradi;
- ilgari sudlangan hamda huquqbuzarliklar sodir etishga moyil boshqa shaxslarga tarbiyaviy ta'sir o'tkazish uchun faxriylardan, xotin-qizlar va yoshlar, madaniyat va din vakillari jumlasidan komissiyalar tuzadi.

Fuqarolar yig'inining kengashi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Fuqarolar yig'inining raisi (oqsoqoli) o'z vakolati doirasida quyidagi ishlarni amalga oshiradi:

- fuqarolar yig'inini chaqiradi;
- rais maslahatchilarining, mas'ul kotibning, fuqarolar yigini faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha komissiyalar hamda

ma'muriy komissiya raislari va a'zolarining nomzodlarini saylash uchun fuqarolar yig'iniga taqdim etadi;

- qonunlar va boshqa qonun hujjatlarining, fuqarolar yig'ini va uning kengashi qarorlarining ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishga doir ishlarni tashkil etadi;

- davlat hokimiyati va boshqaruv organlarida, sudda, yuridik va jismoniy shaxslar bilan munosabatlarda fuqarolarning manfaatlarini ifodalaydi;

- fuqarolar yig'ini mablag'larini qonun hujjatlariga muvofiq tasarruf etadi;

- egasiz mol-mulkni, shuningdek meros tariqasida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organiga o'tgan mol-mulkni saqlash chora-tadbirlarini ko'radi;

- fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi nomidan shartnomalar, shu jumladan mehnat shartnomalari tuzadi;

- kam ta'minlangan oilalarning, shuningdek tabiiy ofatlardan jabr ko'rgan fuqarolarning moddiy va uy-joy-maishiy sharoitlarini yaxshilash to'g'risida tegishli organlarga takliflar kiritadi;

- o'z hududi doirasida yashovchilarni hisobga olib borishni, shuningdek tegishli hududda jamoat tartibini ta'minlashda, shu jumladan fuqarolarning kelishi va ketishini hisobga olishni tashkil etishda, o'smirlar va yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish ishida huquqni muhofaza qiluvchi organlarga ko'maklashishga doir ishlarni tashkil etadi;

- voyaga yetmaganlarning huquqlarini himoya qilish bo'yicha jamoatchilik ishini tashkil etadi, ota-onasining qarovisiz qolgan bolalarni tegishli davlat muassasalariga joylashtirishga ko'maklashadi;

- ichki ishlar organlarining profilaktika bo'yicha tegishli inspektori bilan birgalikda «Mahalla posboni» jamoatchilik tuzilmasining faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiradi;

- yarashtiruvchi komissiyada raislik qiladi;
- tegishli hududda bayram kunlari va muhim sanalar bilan bog'liq ommaviy tadbirlar o'tkazilishini tashkil qiladi;
- ro'yxatdan o'tmagan diniy tashkilotlar faoliyat ko'rsatishining, diniy qarashlarni majburan singdirish hollarining oldini olishga doir ishlarni uyushtiradi, vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi bilan bog'liq boshqa masalalarni hal etadi;
- fuqarolarni qabul qiladi, ularning shikoyatlari, arizalari va takliflarini ko'rib chiqadi;
- fuqarolarga ularning oilaviy va mulkiy ahvoli to'g'risida ma'lumotnomalar hamda hujjatlar, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hujjatlar berilishini ta'minlaydi;
- fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining o'z vakolatlari doirasida qabul qilgan qarorlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun mansabdor shaxslarni javobgarlikka tortish to'g'risida qonunda belgilangan tartibda tegishli organlarga taqdimnomalar kiritadi;
- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Shu bilan birga, rais (oqsoqol) lar tug'ilish, o'lim, nikoh tuzish va nikohdan ajratish, otaliqni belgilash kabi fuqarolik dalolatnomalarini ro'yxatga olishning ayrim turlarini belgilangan tartibda amalga oshiradilar, hamda notarius bo'lmagan aholi punktlarida vasiyatnomalarni, ishonchnomalarni tasdiqlaydilar¹, meros mol-mulkning ko'riqlanishiga doir chora tadbirlar ko'radilar, hujjatlar nusxalarining va hujjatlardan olingan ko'chirmalarning to'g'riligini shahodatlaydilar, hujjatlardagi imzolarning qaqiqiyiligini shahodatlaydilar.

Shaharchalar, qishloqlar va ovullar fuqarolar yig'inlarining raislari (oqsoqollari) qonunda nazarda tutilgan boshqa notarial harakatlarni ham amalga oshirishlari mumkin.

Ayni vaqtda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va ular mansabdor shaxslari o'z vakolatlari doirasida bajarilishi majburiy bo'lgan qarorlar qabul qiladilar.

XULOSA

O'zbekiston Respublikasi mustaqillik yillarida bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishga kirishdi. Davlat boshqaruvining konstitutsiyaviy-huquqiy va amaliy poydevori yaratildi, yangi tizim vujudga keltirildi.

Hozirgi davrda amalga oshirilayotgan jamiyat va davlat qurilishini erkinlashtirishga qaratilgan islohotlar mahalliy davlat hokimiyati vakillik va ijroiya organlari faoliyatining huquqiy asoslari - O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarini takomillashtirib borishni taqozo etadi. Mahalliy davlat hokimiyati organlari va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyati bilan bog'liq qonunlarni ishlab chiqishda, takomillashtirishda xalqaro tajribalar, umume'tirof etilgan qoidalar va milliy an'analar uyg'unligini ta'minlash dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

«...Barcha bo'g'indagi davlat idoralari faoliyatining huquqiy asosi bo'lib xizmat qiladigan qonunlar tizimini barpo etish lozim. Bu tizim, bir tomondan, markaziy ikkinchi tomondan esa, viloyat, shahar, tumanlar darajasidagi Davlat hokimiyati hamda boshqaruv idoralarining vazifalarini aniq belgilab berishi, ularning ishini muvofiqlashtirib turishi kerak. Va nihoyat, u boshqaruv vazifalarining asosiy qismini markazdan viloyatlarga, viloyatlardan shahar-tumanlardagi davlat hokimiyati va boshqaruv idoralariga o'tishini ta'minlashi darkor. Shu tariqa bu bosqich asta-sekin o'z-o'zini boshqarish jamoatchilik tashkilotlariga ham yetib boradi».

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi ilk bor

fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini huquqiy jihatdan mustahkamladi. Birinchi marta «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi Qonun qabul qilindi. «Markaziy davlat organlarining ayrim vakolatli funksiyalarini mahalliy davlat hokimiyati organlariga, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga va jamoat tuzilmalariga bosqichma-bosqich topshirish Konsepsiyasi», «Kuchli davlatdan - kuchli fuqarolik jamiyati sari» konsepsiyasi, «Obod mahalla yili» davlat dasturi ishlab chiqildi. «Mahalla» hayriya jamg'armasi tuzildi. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini faoliyatini muvofiqlashtirish, taraqqiyotini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Oqsoqollar Kengashi tuzildi. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining vakillari Oliy Majlis - Parlamentga birinchi marta deputat etib saylandi.

Oliy Majlisda «Demokratik institutlar, nodavlat tashkilotlar va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari qo'mitasi» tashkil etildi.

Bu kabi normativ-huquqiy hujjatlarni, amaliy-ma'naviy hamda moddiy tadbirlar to'g'risidagi misollarni ko'plab keltirish mumkin.

Shunday qilib, O'zbekistonda shakllanayotgan demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini asoslaridan bo'lgan davlat organlarining ayrim vakolatlari fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga o'tkazish orqali bu organlarni tashkil etilishi, takomillashuvi, huquqiy maqomi va vazifalarining konstitutsiyaviy - huquqiy asosi yaratildi.

Keyingi jarayonlarda davlat boshqaruvini takomillashtirish, amalga oshirilayotgan islohotlardan kutilgan maqsadlarga erishish davlat hokimiyati va boshqaruvi, xususan mahalliy davlat hokimiyati va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish tizimining mavqeini bundan ham mustahkamlash, ularning tashkiliy-huquqiy faoliyatini muntazam takomillashtirib borishni taqozo qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T. 2014 y
2. I.Karimov. "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida" Toshkent.: 2011
3. "Mahalliy hokimiyat organlarining huquqiy asoslari" Toshkent.: 2009
4. "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va mahalliy davlat hokimiyati" Toshkent.: 2005
5. "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish" Toshkent.: 2005
6. I.Karimov. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" Toshkent.: 2008
7. I.A.Karimov "Adolatli jamiyat kurish yo'lida" T. O'zbekiston.
8. I.A.Karimov "Yangi uy qurmasdan eskisini buzib bo'lmaydi". T.O'zbekistan.
9. I.A.Karimov "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyoti kafolatlari". T.O'zbekiston, 1997.
10. I.A.Karimov "O'zbekiston - kelajagi buyuk davlat". T.O'zbekiston 1997.
11. I.A.Karimov "O'zbekiston XXI asrga intilmoqda" T.O'zbekiston 1999, 48.
12. I.A.Karimov "Adolat – qonun ustivorligida" T. "Adolat" 1997.
13. Xusanov O.T. O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati vakilligi va ijro hokimiyati organlari. T. Universitet, 1994.
14. Jalilov Sh. Davlat hokimiyati mahalliy organlari islohoti, tajriba va muammo. T. O'zbekiston, 1994.
15. To'laganov A.G.Davlat hokimiyati vakilligi va o'zini-o'zi boshqarish organlari faoliyatini tashkil etish. O'quv qo'llanma, T. Universitet, 1996.
16. Xusanov O.T. O'zbekiston Respublikasi mahalliy davlat hokimiyati to'g'risidagi qonuniga sharh. T. Adalat, 1995.
17. Demokratik davlat sari. Mualliflar jamoasi. T. Fan 1993.
18. X.T.Odilqoriyev, I.T.Tulteev "Ikki palatali parlament" Toshkent IIV akademiyasi 2005

MUNDARIJA:

Rustambek IMAMOV
Rahmatullo HAYDAROV

MAHALIY HOKIMIYAT ORGANLARINING KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI

(Uslubiy-risola)